

# POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan  
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

## ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI – ENG NAMUNALI VAZIRLIK!

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni Xalqaro kongress markazida «Sifatli davlat boshqaruvi» dasturi bo'yicha forum va taqdirlash marosimida ishtirok etdi.

Mazkur dastur davlat idoralari faoliyatini xolis baholash, ularning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, ilg'or tajribalarini keng ommalashtirish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Dastur doirasida shu yil yanvar–aprel oylarida mamlakatdagi 40 ta davlat idorasi faoliyati mahalliy va xalqaro ekspertlar tomonidan baholangan bo'lib, Ichki ishlar vazirligi davlat xizmatlarini ko'rsatishdagi ijobiy natijalari uchun **ENG NAMUNALI VAZIRLIK** deb topildi.

Ichki ishlar vazirligida ushbu yo'nalishdagi ishlar so'nggi yillarda yangi bosqichga olib chiqildi.

Bugungi kunda vazirlik tomonidan ko'rsatilayotgan 60 ga yaqin xizmat turining 95 foizi to'liq raqamli shaklga o'tkazilgan. Ilgari tarqoq bo'lgan 72 ta ma'lumotlar bazasi yagona «Xavfsiz shahar» tizimiga birlashtirilib, unga 14 ta boshqaruv markazi va 20 dan ziyod vazirlik ulangan. O'tgan yili 148 mingdan ortiq ma'muriy ish masofaviy tarzda ko'rib chiqilgan.

Vazirlik tomonidan zamonaviy davlat xizmatlariga inson uchun yaratilgan qulaylik sifatida e'tibor qaratilishi xalqimizning davlat idoralari bilan nisbatan ishonchi mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

**ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**  
**DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHDA**  
**ENG NAMUNALI**  
**DEB TAN OLINDI**

- 60 GA YAQIN** XIZMAT TURI KO'RSATILMOQDA
- 95%** XIZMATLARNING 95 FOIZI TO'LIQ RAQAMLI SHAKLDA
- 72 TA** MA'LUMOTLAR BAZASI YAGONA «XAVFSIZ SHAHAR» TIZIMIGA BIRLASHTIRILDI
- XAVFSIZ SHAHAR TIZIMI**
- 14 TA** BOSHQARUV MARKAZI TIZIMGA ULANGAN
- 20 DAN ZIYOD** VAZIRLIK VA IDORALAR TIZIMGA ULANGAN
- 148 MINGDAN ORTIQ** MA'MURIY ISH MASOFAVIY TARZDA KO'RIB CHIQLIDI
- ODAMLARNING** IDORAMA-IDORA SARSON BO'LISHIGA YO'L QO'YILMADI

**ZAMONAVIY DAVLAT XIZMATLARI – INSON UCHUN YARATILGAN QULAYLIK BILAN O'LCHANADI!**

TEZKOR XAVFSIZ SHAFFOF QULAY

Iftixor

## ICHKI ISHLAR XODIMINING FARZANDI – YURT FAXRI

Ota-ona kitobxon bo'lsa, albatta, farzandi ham kitobga mehr qo'yadi. Peshku tumanidagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Farzona Nosirova ana shunday muhitda ulg'aydi. Yaqinda u «Yosh kitobxon» tanlovining respublika bosqichida 10–14 yoshlilar o'rtasida mutlaq g'olib bo'lib, Prezidentimiz sovg'asi – «BYD Chazor» elektromobili bilan taqdirlandi.

2



## Jarayon

## SAYYOR QABUL: MASOFA TO'SIQ EMAS



Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini amalda ta'minlash, ichki ishlar organlari va jamiyat o'rtasida ochiqlik hamda shaffoflikni mustahkamlash maqsadida joylarda sayyor qabullar muntazam tashkil etib kelin-yapti.

**I**chki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov rahbarligida o'tkazilgan navbatdagi sayyor qabulda ham sohaning mas'ul rahbar va mutasaddilari ishtirok etib, murojaatlarga amaliy yechim topishga alohida e'tibor qaratishdi.

Sayyor qabul jarayonida aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida hududiy omillar alohida inobatga olindi. Xususan, Toshkent shahri

hamda Toshkent viloyati fuqarolari bilan yuzma-yuz uchrashuvlar tashkil etilgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar uchun videokonferensaloqa orqali masofaviy qabullar o'tkazildi. Bu, o'z navbatida, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliksiz murojaat qilish imkoniyatini kengaytirdi.

Qabul davomida ichki ishlar organlari faoliyatiga daxldor turli masalalar, jumladan, fuqarolar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar, surishtiruv va tergov jarayonlarida yuzaga kelgan muammolar, ijtimoiy

himoya, ishga qayta tiklanish hamda boshqa huquqiy masalalar yuzasidan murojaat va takliflar bildirildi.

Tadbir yakuniga ko'ra, jami 536 ta murojaat qayd etilib, ularning 301 tasi (56 foizi) belgilangan tartibda joyida ijobiy hal etildi. Qolgan 235 ta murojaat esa qo'shimcha o'rganish talab etgani bois nazoratga olinib, mas'ul sohaviy xizmatlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar ichki ishlar organlari rahbarlari tomonidan tashkil etilgan qabullarda 395 ta murojaat kelib tushdi.

Ularning 170 tasi (43 foizi) joyida hal qilingan bo'lsa, 225 tasi qo'shimcha tekshiruv va huquqiy o'rganish asosida ko'rib chiqish uchun yo'naltirildi.

Bunday sayyor qabullar davlat organlari va xalq o'rtasidagi ochiq muloqotni mustahkamlash, aholining tizimga bo'lgan ishonchini oshirish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etishda muhim platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli bunday tadbirlar respublikamizning barcha hududlarida tizimli ravishda davom ettiriladi.

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.

## Iftixor

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

– Ushbu tanlovni ancha yildan beri kuzatib kelaman. Qaniydi, qizlarim ham shu tanlovda qatnashsa, deb o'ylardim, – deydi Peshku tumanini IIB JXX HPB profilaktika inspektori, mayor Nasim Bog'iyev. – Turmush o'rtog'im: «Tashvish tortmang, qizlaringiz tanlovda nafaqat ishtirok etadi, balki yuqori o'rinni ham oladi», – deya ko'nglimni ko'tardi. Bundan ikki yil oldin to'ng'ich qizim Farzona mazkur tanlovning mahalla va sektor bosqichlarida birinchi o'rinni egalladi. Lekin viloyat bosqichiga o'tolmadi. O'shanda qizimning ko'nglini ko'tarib, «xafa bo'lma, keyingi yil albatta, g'olib bo'lasan», degandim. Buni qarangi, niyatim ijobat bo'ldi.

Mayor Nasim Bog'iyevning turmush o'rtog'i Mehriyo Shirinova qizini kitob o'qishga yo'naltirib, Farzona bilan jiddiy shug'ullangandi. Bu bejiz emas, albatta. U Buxoro davlat universiteti doktoranti, mazkur oliy o'quv yurti muassisligida chop etilayotgan «BuxDU ilmiy axboroti» ilmiy-nazariy jurnalining mas'ul kotibi, «Pedagogik mahorat», «Psixologiya» ilmiy-metodik jurnallarining muharriri.

– Farzona hali maktabga bormasidan alifbo kitobini mustaqil o'qir, qo'shish-ayirish amallarini yoddan bajarardi, – deydi M. Shirinova g'ururlanib. – Avvalo o'zimiz farzandlarimizga namuna bo'lish

## ICHKI ISHLAR XODIMINING FARZANDI – YURT FAXRI



uchun bo'sh payt topdik deguncha, biror asarni ovoz chiqarib o'qirdik. Qizlarimiz jimgina quloq solishardi. Katta bo'lishgach, bir asarni birgalikda o'qib, keyin, o'zaro muhokama qilardik.

Haqiqatan ham, Farzona murg'akligidan kitobga mehr qo'ydi. Lof bo'lmasin-u, «Yosh kitobxon» tanloviga qatnashishidan oldin 200 tadan ortiq kitobni mutolaa qilgan. Tanlov ro'yxatiga kiritilgan 40 ta kitobni uchto'rt martalab o'qib chiqqan. She'riy to'plamlarni-ku, aytmasa ham bo'ladi. Nasriy asarlar bo'yicha ona-yu qiz savol-javob o'tkazardi. Har bir

asarning badiiy xususiyatlari, g'oyasi haqida suhbatlashishardi.

– Qizimning kitobga oshno bo'lishida onasining o'rni beqiyos. U Farzonaning «Yosh kitobxon» tanlovida yuqori o'rin olishida ko'z nuri va qalb qo'rini baxsh etdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki men ba'zan xizmatdan kechasi soat 23:00 da qaytgan paytlarim ham, ular kitob mutolaasi bilan band bo'lganini ko'rardim. Tanlovda qizimizga birinchi o'rin berilganini eshitgach, onasi yig'lab yubordi. Bu sevinch yoshlari edi, – deydi mayor Nasim Bog'iyev.

Nasim Bog'iyev «Namunali oila» ko'rik-tanlovida ham muntazam o'z oilasi bilan qatnashib kelmoqda. Xususan, 2022–2023-yillarda mazkur tanlovning viloyat bosqichida faxrli 2-o'rinni egalladi. 2024-yilda respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritib, «Kitobxon oila» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Darvoqe, kitobxon oilaning yana ikki qizi – Anisaxon va Imronaxon ham kitobga mehr qo'yishgan. Ichki ishlar vaziri bilan bo'lgan uchrashuvda besh yoshli Imronaxon «Bolaga kitob bering» she'rini ifodali aytib, hammani hayratda qoldirdi.

Ichki ishlar vaziri davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan Farzona Nosirova va uning oila a'zolarini samimiy muborakbod etdi. Ularga kelgusida ham ulkan zafarlar, ilm yo'lida yangi muvaffaqiyatlar tilab, qimmatbaho sovg'alar ulashdi.

Peshku tumanidagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi, «Yosh kitobxon» tanlovi g'olibasi Farzona Nosirova ulg'aygach, ichki ishlar organlari tizimining turizm yo'nalishida faoliyat ko'rsatish niyatida. Buning uchun endilikda xorijiy tillarni chuqur o'rganishga ahd qildi. Shu bilan birga jahonning mashhur adibasi Agata Kristi asarlarini o'qishga kirishdi. Biz unga orzusiga yetishi yo'lida omad tilab qolamiz.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sulola

## OLIY BAXT

**M**en 2014-yildan buyon ichki ishlar organlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqdaman. El-yurt tinchligi va osoyishtaligi, jamiyat xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifada xizmat qilish men uchun nafaqat kasb, burch, balki yuksak sharaf va oliy qadriyat.

Bobom Amanbay Mamasoliyev iste'fodagi polkovnik. Otam Ilyosbek Mamasoliyev esa podpolkovnik darajasiga yetib, izzat-hurmat bilan pensiyaga chiqqan. Ularning Vatanga sadoqati, xalq xizmatiga yuksak mas'uliyati, sharafli hayot yo'li men uchun doimo ibrat maktabi bo'lib kelgan. Ular menga xalqqa

liklari uchun ulardan cheksiz minnatdorman.

Men uchun aziz bo'lgan bu insonlarning saboqlari tufayli xizmat davomida duch kelgan qiyinchiliklar, mashaqqat va sinovlarni sabot hamda matonat bilan yengib o'tyapman. Bobom boshlab bergan sulolaning munosib davomchisi bo'lishga, bundan keyin ham huquq-tar-



xizmat qilish inson uchun eng oliy burch ekanligini yoshligimdan uqtirib kelgan. Bugungi kunda erishgan har qanday yutug'imda har ikkisinin ham o'zni beqiyos. Meni hamisha to'g'ri yo'lga boshlab, doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgan-

tibotni mustahkamlash yo'lida sidqidildan xizmat qilishga va'da beraman. Zero, el-yurt tinchlik-osoyishtaligi yo'lida xizmat qilish men uchun eng oliy baxtdir.

**Bahodir OMONBOYEV,**  
Andijon viloyati IIB huzuridagi  
Qo'riqlash xizmati safdor  
xodimi, kichik serjant.

Oramizdagi qahramonlar

## SINALGAN SADOQAT



**T**abiat injiqliklari va ekstremal ob-havo sharoiti inson irodasini sinovdan o'tkazadi. Yaqinda respublikamiz hududlarida kuzatilgan tinimsiz yog'ingarchiliklar va ularning ortidan kelgan sellar haqiqiy qahramonlar oramizda ekanini yana bir bor namoyon etdi. Murakkab vaziyatda o'z sog'lig'i hamda hayotini xavf ostiga qo'yib, aholi osoyishtaligi va xavfsizligi yo'lida jasorat ko'rsatgan osoyishtalik posbonlari har qanday e'tirofga loyiq. Ular xizmat vazifasiga sidqidildan yondashib, xalqimiz mehri va e'tirofini qozonishdi.

Shovullab oqayotgan loyqa oqimlar, sel suvlari va murakkab vaziyatga qaramay, kecha-yu kunduz hushyorlikni yo'qotmagan hamkasblarimiz chinakam fidoyilik namunasini ko'rsatishdi. Fidokorona xizmat hamda yuksak kasb mahorati Ichki ishlar vazirligi rahbariyati tomonidan munosib baholandi va rag'batlantirildi.

Xizmat burchini bajarishda alohida ajralib turgan bir guruh xodimlar, xususan, Toshkent viloyati IIB xodimi, katta serjant Doniyorbek Rustamov hamda Navoiy viloyati IIB xodimlari – katta serjantlar Sunnatillo Mustafoyev va Feruz Namozov vazirlikning «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, xizmat vazifasini namunalidir etgani uchun Navoiy viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi ikkinchi ishg'ol qilish guruhi katta mutaxassis-haydovchisi, katta serjant Bunyod Aslonov IIVning esdalik qo'l soati bilan mukofotlandi.

Bu mukofotlar faqatgina bir guruh xodimlarning yutug'i emas. Bu – tizimda kechayotgan ijobiy o'zgarishlarning, xalq bilan ichki ishlar organlari o'rtasida mustahkamlanib borayotgan o'zaro ishonch ko'prigining yorqin timsolidir.

El boshiga sinovli kunlar tushganda o'zini panaga olmay, qiyin vaziyatda mardonavor turib bergan bunday o'g'lonlar bor ekan, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi bardavom bo'laveradi. Vatanga sodiq, kasbiga mas'uliyatli va fidoyi xodimlarimizning sharafli xizmatlariga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.



Ezgu an'ana

## BIR TUP DARAXT – BIR AVLODGA NAF

**B**ugungi kunda Sharof Rashidov tumanida tashkil etilgan Jizzax viloyati IIB tasarrufidagi Ichki ishlar bog'i ko'pchilikning tiliga tushgan. Ulardan biri «Kuyovboshi» mahallasida. Maydoni 8 gektar. E'tiborlisi, bog' tog' yonbag'rini egallagan.

Tabiiyki, tog' bo'lgani uchun joyi toshloq yer bo'lib, ko'chatlarni sug'orish muammo edi. Shu bois tabiiy iqlimga mos daraxt navlari tanlashga e'tibor qarattildi. Tog' pistasi, tog' bodomi, chilonjiyda, tog' gilosi kabi toshloqni xush ko'ruvchi navlar, manzarali turlardan – go'zal katalpa, archa, mevasi dorivor – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida o'sadigan «godji» butasi ekildi. Bundan tashqari, uzumning «kishmish», «maska» navlari, o'rik, shaftoli ko'chatlari – jami 3500 tup daraxt ekib, ko'kartirildi. Bog'ni tashkil etishga viloyat IIB boshlig'i, general-mayor G'ayrat Qodirovning shaxsan o'zi tashabbuskor bo'ldi, desak sira mubolag'a bo'lmaydi.

– O'zim tabiatni yashillikni, bog'larni yaxshi ko'raman. Bolaligimda bog'imizda maydan to kech kuzgacha mevalarni uzib yeganimizni eslasam, hali hanuz ko'nglim yorishib ketadi. Otamni ko'pchilik



«Toir bog'bon» deyishardi. U kishi haqiqiy usta bog'bon edi. Tomorqamizda, qo'ni-qo'shnilarining bog'larida otam payvand qilgan mevali daraxtlar serob edi. Mevalarining mazasi-yu, ko'rinishi ham boshqacha bo'lardi. Otam har doim «Bir tup daraxt – bir avlodga naf» deb aytardilar, – deydi general-mayor G'ayrat Qodirov. – Chunki daraxt bugun uchun emas, kelajak uchun ekiladi. Bu bog'lar iqlim o'zgarishi sharoitida bizdan kelajakka yashil soyabon, tabiatga posbon sifatida sovg'a. Axir ichki

ishlar idoralari xodimlarining ham tabiat oldidagi burchi, vazifasi, mas'uliyati bu.

Bog'lardagi har bir ko'chat tagiga suv tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida yetib borgan. Yomg'ir suvlari yig'ilishi uchun ham sharoit qilingan. Bu esa sug'orish tizimi qadimiy bog'bonchilik an'analari hamda zamonaviy usullarda tashkil etilganidan dalolat beradi.

Tumanning Bobur nomli mahallasi hududida 26,2 ga maydonni egallagan yana bir bog'ning barpo etilganiga 8 yil bo'lgan. Yaqinda bir guruh jurnalistlar mazkur bog'larga tashrif buyurishib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, yerdan unumli foydalanish, har bir qarich tuproqni obod qilish borasidagi ishlar bilan tanishishdi. Bog'ning 4 ga yerida poliz, dukkakli ekinlar va turli sabzavotlar yetishtirilib, ular IIB va uning tasarrufidagi ta'lim muassasalariga yetkazib berilmoqda. E'tiborli jihati, mazkur bog'lar respublikada yagona hisoblangan viloyat IIB ishchilar ta'minoti bo'limi tomonidan parvarishlanadi.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Jizzax viloyatiga oid materiallar bilan gazetamizning 12–13-sahifalarida tanishasiz.

## Soha fidoyilari

## TERGOVCHILIK – ZAHMATLI KASB

**Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash kasbiga sodiq, halol va yuqori malakali mutaxassislar zimmasidagi sharaflari vazifa. Ana shunday mas'uliyatli yo'lni tanlagan fidoyi xodimlardan biri Muzrabot tumani IIB huzuridagi tergov guruhi tergovchisi, katta leytenant Sirojiddin Xudoyorovdir.**

Lavhamiz qahramoni uchun kasb tanlovi shunchaki qaror emas, balki ichki ishonch va adolatga bo'lgan sadoqat samarasi. Bu fikr zamirida nafaqat nazariy bilim, balki har kuni amaliyot chig'irig'idan o'tayotgan hayotiy va kasbiy tajriba mujassam.

Katta leytenant Sirojiddin Xudoyorov kundalik xizmatini intizom va mas'uliyat asosida olib boradi. Jarayon, avvalo, jabrlanuvchilar bilan muloqotdan boshlanadi. Bu shunchaki so'roq emas, balki inson taqdiriga daxldor, nihoyatda nozik jarayondir. So'ngra guvohlar bilan yuzlashtirish, voqea tafsilotlarini teran o'rganish va dalillarni taqqoslash kabi jarayonlar izchillik bilan davom etadi. Kunning ikkinchi yarmida esa tergov hujjatlarini rasmiylashtirish, xulosalar yozish va ishni huquqiy jihatdan mustahkamlashdek mas'uliyatli bosqichlar bajariladi. Ko'pincha bu tig'iz jarayon kechki soat 21:00 ga qadar davom etadi.

Tergovchilik faoliyatining eng murakkab jihati har qanday vaziyatda xolis va adolatli to'xtamga kelishdir. Lavhamiz qahramonining ta'kidlashicha, inson qaysi maqom yoki lavozimda bo'lmasin, uning har bir qarori haqiqatga asoslanishi shart. Shu bois u har bir ishda nafaqat qonun normalariga, balki yuksak insoniylik mezonlariga ham tayanadi. Jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan omillarni sinchkovlik

bilan o'rganish, shaxsning ruhiy holati va vaziyat tafsilotlariga biryoqlama emas, balki keng qamrovli yondashish – Sirojiddin Xudoyorov ish uslubining eng muhim va o'ziga xos jihatlari. Sirojiddin o'tgan yillarda ko'plab ustozlardan saboq olganini ta'kidlaydi. Eng muhim o'rgangan jihati esa – mustaqil fikrlash. «Inson boshqalar ta'siriga tushmasdan, o'zi qaror qabul qila olishi kerak», deydi u.

U Muzrabot tumanida 12 nafar shaxs ishtirokida sodir etilgan bezorilikka oid jinoiy ish uning kasbiy mahoratini yaqqol namoyon etdi. Dastlab gumonlanuvchilar o'z ayblarini qat'iy rad etgan bo'lsa-da, u voqea joyidagi kuzatuv kameralari tasvirlarini soniyama-soniya sinchkovlik bilan tahlil qilib, hodisaning aniq xronologiyasini tiklashga muvaffaq bo'ldi.

Inkor etib bo'lmas dalillarga asoslangan professional yondashuv natijasida haqiqat qaror topdi. Uch oy davom etgan mashaqqatli tergov jarayoni yakunida aybdorlarning qilmishi to'liq isbotlanib, qonun ustuvorligi ta'minlandi. Bunday mashaqqatli mehnatdan so'ng inson ruhan toliqishi tabiiy hol. Katta leytenant Sirojiddin Xudoyorov uchun bunday paytlarda kuchni oilasidan oladi. Uning e'tiroficha, kun yakunida oilasi bag'riga qaytish, bir dasturxon atrofida dildan suhbatlashish – eng samarali ruhiy tiklanish usuli. Bu esa qahramonimizning nafaqat yaxshi mutaxassis, balki mehribon ota va oilaparvar inson ekanini ham ko'rsatadi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

*Surxondaryo viloyati.*

## El xizmatida

## BEDOR TUNLAR SABAB HAYOT XOTIRJAM

**Biz har kuni ertalab ishga yoki o'qishga shoshilamiz. Ko'chalardagi osoyishtalik, mahallalardagi tinchlikni oddiy holdek qabul qilamiz.**

**Ammo shu xotirjam hayot ortida kimlarning bedor turlari, mashaqqatli xizmati turganini har doim ham o'ylab ko'rmaymiz.**

Ana shunday mas'uliyatli kasb egalari safida viloyat IIB JXX Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi bo'linmalari saf bo'linmalari patrul-post xizmati batalyoni tumanlararo otryadi patrul-post xizmati inspektori, safdor Ravshanbek Yuldashev ham bor.

Pop tumanida tug'ilib voyaga yetgan Ravshanbek maktabni tamomlagach, oldida turli yo'llar ochiq edi. U esa eng sharaflari va mashaqqatli kasb – Vatan posboni bo'lishni tanladi.

– Bu kasbni tanlaganim bejiz emas, – deydi Ravshanbek Yuldashev. – Insonlar tinch yursa, o'zingni ham xotirjam his qilasan. Kimningdir yo'qotgan narsasini topib bersangiz yoki mushkulini yengil qilsangiz, shuning o'zi katta baxt.

Darhaqiqat, patrul-post xizmati xodimining vazifasi



faqat huquqbuzarni ush-lashdan iborat emas. Ular ko'chada tartib saqlaydi, odamlarga yordam beradi, ba'zan maslahatchi, ba'zan esa ruhiy tayanchga aylana.

Joriy yil boshidan buyon viloyat PPX batalyoni tomonidan 74 ta jinoyat aniqlangan bo'lsa, shundan 40 tasi Ravshanbek va uning safdoshlari tomonidan fosh etilgan. Qidiruvda bo'lgan 6 nafar shaxs ushlanib, 4 nafar bedarak yo'qolgan fuqaro o'z oilasi bag'riga qaytarildi. Bu raqamlar ortida esa inson taqdiri, oila quvonchi va saqlab qolingani taqdirlar mujassam.

Yaqinda Namangan shahridagi do'konlardan birida o'g'irlik sodir etildi. Safdor Ravshanbek Yuldashev va katta serjant Jahongir Xolmirzayevning tezkorligi va sinchkovligi natijasida jinoyat izi sovimasdan fosh etildi.

– Har bir voqeaga befarq qaramaslik kerak, – deydi u. – Kichik xato o'z vaqtida

to'xtatilmasa, katta jinoyatga aylanishi mumkin.

Tergov jarayonida ushbu qilmishni 8-sinf o'quvchisi sodir etgani ma'lum bo'ldi. Bu esa bir jihatdan o'sha o'smirning kelajagini asrab qolishga ham xizmat qildi.

Yana bir holatda Yangi Namangan tumanida giyohvandlik moddasi bilan yurgan shaxs qo'lga olindi. Ayrimlar uchun bu arziyas holatdek tuyulishi mumkin. Ammo jamiyat osoyishtaligiga rahna soluvchi har qanday illatga qarshi kurashish – huquq-tartibot xodimlarining muhim vazifasi.

Safdor Ravshanbek Yuldashev kabi o'z burchiga sadoqatli xodimlar bor ekan, yurtida tinchlik va xotirjamlik bardavom bo'ladi. Zero, Vatanni sevish – uning har bir fuqarosi osoyishtaligini asrashdan boshlanadi.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Namangan viloyati.*

Yo'l boshida

## PROFILAKTIKA – MUHIM JARAYON

**Yoshlarning huquqiy bilimni oshirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga ichki ishlar organlari inspektor-psixologlari katta hissa qo'shmoqdalar. Xususan, Yakkabog' tumanida bu borada qator ijobiy ishlar amalga oshirilyapti. Tuman IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi inspektor-psixologi, katta serjant Muhammad Sharopovning o'ziga birlashtirilgan «Navro'z» mahallasida olib borayotgan faoliyati bunga yorqin misoldir.**



Katta serjant M. Sharopov o'smirlar bilan bog'liq har bir masalani ipidan ignasigacha o'rganib, ijobiy yechimini topishda bor bilim va mahoratini ishga

solmoqda. Mahalla faollari, ta'lim muassasalari hamda mutasaddi tashkilot va idoralar bilan yo'lga qo'yilgan mustahkam hamkorlik xizmat samaradorligini

ta'minlashda bosh omil bo'lyapti.

Inspektor-psixolog hudud-dagi 99-maktabda o'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish

maqsadida tez-tez ochiq muloqotlar o'tkazib kelmoqda. Xususan, «Siz qonunni bilasizmi?», «Yoshlar giyohvandlikka qarshi» va «Kitob – bilim kaliti» kabi mavzularda uyushtirilayotgan tadbirlar yoshlarda vatanparvarlik va qonunga hurmat tuyg'ularini mustahkamlanmoqda.

Targ'ibot uchrashuvlari yakunida giyohvandlik, terrorizm va diniy ekstremizmning ayanchli oqibatlarini haqidagi videofilmlar namoyish etilayotgani tadbirlar ta'sirchanligini oshirmoqda.

– Yaqinda maktabning oliy toifali o'qituvchisi Gulzamon Boytemirova bilan hamkorlikda «Ota-onam va men» mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazdik, – deydi katta serjant Muhammad Sharopov.

– Tadbir o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Tanlovda bolalar ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish bilan birga, ularning dunyoqarashi va erkin fikrlashi yanada yuksaldi.

Hududdagi yozgi sport majmuasida 500 nafarga yaqin o'smirlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazmoqda. Yoshlar bu yerda tajribali murabbiylardan futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, shashka, ot sporti va milliy kurash sirlarini o'rganyapti. Natijalar quvonarli. Masalan, maktabning 9-sinf o'quvchisi Bekzod Shoxlijev ot sporti (to'siqlardan sakrash) bo'yicha respublika musobaqasida 2-o'rinni egalladi.

Mahallada yoshlarning sport va bilimga qiziqishi yuqoriligi bois hududda profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlar mavjud emas.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Qashqadaryo viloyati.*

Mahalla tinch – yurt tinch

## «CHILONZOR TAJRIBASI» ASOSIDA

**Tinch va osoyishta mahalla. Buning zamirida odamlarning xotirjam uyqusi, farzandlarning bexavotir kelajagi va nuroniylarning ko'ngil to'qligi mujassam. Zero, jamiyat mustahkamligi va davlat qudrati, avvalo, ana shunday tinch-osuda hududlardan boshlanadi.**

Bo'ston tumanidagi 25 ta mahalla fuqarolar yig'inida 81 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, mahallalarning 3 tasi «qizil», 11 tasi «sariq» toifaga kiritilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar ortida muayyan ijtimoiy masalalar va yechimini kutayotgan muammolar turgani ayon edi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ilgari surilgan «Chilonzor tajribasi» jinoyatchilikni jilovlash va huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlashda muhim dasturulamal bo'ldi. Shu asosda «qizil» va «sariq» toifadagi mahallalarda qayta xatlov o'tkazilib, har bir oila ijtimoiy holati, turmush tarzi o'rganildi. Bu jarayonda fuqarolarning fikr-mulohazalari eshitilib, mavjud muammolarning sabab va omillarini aniqlashga alohida ahamiyat berildi.

– Xizmat faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida namunaviy tezkor shtab faoliyati yo'lga qo'yildi, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Samandar Ortiqov. – Shtabda jamlangan ma'lumotlar tahlil qilinib, hududlar to'rtta sektorga bo'lingan holda kunlik muhokamalar olib borildi. Profilaktika xizmatida murojaatlar bilan ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu jarayonga huquqiy jihatdan yetuk va tajribali xodimlar safarbar etildi.



Natijada murojaatlarni o'z vaqtida o'rganish, muammolarni ijobiy hal etish imkoni kengaydi.

Bu sa'y-harakatlar zamirida inson taqdiriga bo'lgan mas'ullik hissi mujassam. Negaki, har bir murojaatning o'z vaqtida, xolis ko'rib chiqilishi ehtimoliy nizolarning barham topishiga, muhimi, og'ir jinoyatlarning oldi olinishiga xizmat qiladi.

«Pillakor» mahallasi o'tgan yili «qizil» toifada edi. Bu hududda aholini qiynayotgan muammolar yetarlicha ekanidan dalolat berardi. Vaziyatni o'nglash yo'lidagi sa'y-harakatlar esa tez orada o'z samarasini berdi.

– Mahallamizda 2024-yilda 18 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2025-yilda bu raqam 8 taga kamaydi, – deydi profilaktika inspektori, katta leytenant Asrorbek Ahmedov. – Joriy yilning o'tgan davrida esa birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jinoyatga qo'l urganlarning aksariyati muqim ish joyiga va daromad manbayiga ega bo'lmagan shaxslar. Shu bois aholi bandligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratdik va ayni paytda ham bu yo'nalishda aniq reja asosida ish olib boryapmiz.

Darhaqiqat, ishsizlik va moddiy yashash imkonini yaratish nihoyat muhim. Mahallada tomorqachilikni rivojlantirish, chorvachilik uchun zarur sharoitlar yaratish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

– Mahallamizdagi ijobiy o'zgarishlardan aholi mamnun, – deydi «Pillakor» MFY raisi Oydinoy Bakirova.

– Muntazam o'tkazilayotgan sayyor qabullar biz e'tibordan chetda qoldirgan muammolarni ham yuzaga chiqarib, ularni o'z vaqtida ijobiy hal qilish orqali mahalladagi vaziyatni ancha yaxshilashga erishdik.

Tumanda jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanilmoqda. Xususan, yuqori aniqlikdagi kuzatuv kameralari, yuzni tanib oluvchi tizimlar hamda tezkor «tashvish tugmalari»ning joriy etilishi hududda nazorat va tezkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. Zamon talab qilayotgan bunday yondashuv texnik imkoniyatlarni inson salohiyati bilan uyg'unlashtirib, samaradorlikni oshirmoqda. Eng muhimi, bu sa'y-harakatlar quruq statistika uchun emas, balki amaliy natijadorlik uchun xizmat qilmoqda.

**Saminjon HUSANZODA,**  
o'z muxbirimiz.

*Andijon viloyati.*

## Tergov amaliyotidan

## «KO'KI»NI CHO'ZSANGIZ...

Ba'zi odamlarning soddaligi boshqalar hisobidan foyda olish payida bo'lganlarga juda qo'l keladi. Shofirkon tumanida yashovchi H. Ramziddin (ism-shariflar o'zgartirildi)ga ham ishonuvchanligi pand berdi. U «Toshkent—Shofirkon» yo'nalishli avtobusda ishchi bo'lib ishlardi. O'tgan yili avgust oyida avtobus poytaxtga ketayotgan payti yo'lovchilar orasidan A. Nurmat bilan tanishib qoladi. Gap orasida Ramziddin ikki yil burun haydovchilik guvohnomasini olmasdan Rossiya Federatsiyasiga ishlashga ketganini, xoriydan kelgach, so'nggi vaqtlarda haydovchilik guvohnomasini olish uchun test imtihonlari qiyinlashgani bois ikkilanib yurganini aytadi.

– Xizrga yo'liqqan inson ekansiz, – dedi Nurmat. – Tanishlarim bor, «ko'kini» cho'zsangiz bo'ldi. Bir necha kun ichida guvohnoma qo'lingizga tegadi.

– Test nima bo'ladi? – ajablanib so'radi Ramziddin.

– Hammasi tanishimga yuklanadi. U ham oz emas, ko'p emas, 1200 AQSH dollar oladi.

– Xizmat haqingiz-chi?

– Tanishimning o'zi ajratib beradi. Bu yog'idan, aslo g'am chekmang, – deya Nurmat ishshayib qo'ydi.

– Mayli, roziman. Ammo ming dollar bera olaman. Gu-

vohnomani yuvish uchun bir choy berish ham zimmamda, – dedi Ramziddin.

Shu tarzda Ramziddin telefon raqamini yozib oldi. Ammo Nurmatdan qayerda ishlashini so'ramadi. «Raqamini oldim-ku» deya ko'ngli xotirjam tortdi.

Ramziddin Shofirkon tumaniga qaytgach, Nurmatga qo'ng'iroq qiladi. U Navoiy shahrida ekanligini aytgandan so'ng unga 600 AQSH dollari olib borib beradi. Oradan ikki kun o'tib, Nurmat tumanga kelganini va fuqarolik pasporti nusxasi, o'qish joyidan berilgan hujjatlarni



hamda qolgan pulni so'raydi. Ramziddin darrov hammasini yetkazadi va evaziga uch kun ichida guvohnomali bo'lish va'dasini oladi.

– Bu uch kun ikki oygacha cho'zilgach, noiloj tuman IIBga ma'lum qildim, – deydi dastlabki tergov jarayonida Ramziddin. – Bundan tashqari, onasi o'g'li bu ishni birinchi bor qilmayotganligini, u ko'plab odamlarni aldab, pullarini olganini yashirmasdan aytib berdi. Haligacha hujjatlarimni ham, pullarimni ham ololganim yo'q.

Tuman IIB huzuridagi tergov guruhi katta tergovchisi,

kapitan Asrorjon Nekboyev jinoyat ishini puxta o'rgandi. Ayniqsa, jabrlanuvchining ko'rsatmasiga e'tibor qaratib, har bir holatga sinchkovlik bilan nazar soldi. Ayblanuvchining aybi tasdig'ini topdi. Bundan tashqari, A. Nurmat qishloqdoshi G'. Nabidan ham bir yil muqaddam 600 AQSH dollari qarzga pul olib, haligacha qaytarib bermaganligi tergov jarayonida aniqlandi.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanida yashovchi M. Soliqulning o'g'li internet orqali avtomashinani qo'shimcha jihozlovchi ustaning telefon

raqamini topib bergach, u o'zini usta sifatida tanishtirgan A. Nurmat bilan bog'lanadi. Yaqinda «FAW Tiger» rusumli avtomashina sotib olganini, o'n kun ichida avtomashinani o'z nomiga rasmiylashtirib, davlat raqam belgisini olmoqchiligini, shu bois tezda qayta jihozlab, hujjatlarini tayyorlab olmoqchi bo'ldi. «Usta» bor mahoratini ishga solib, Soliqulning ishonchiga kirdi. Evaziga 1500 AQSH dollari va 4 million 800 ming so'm miqdoridagi pullarini olishga erishadi.

«Hojatbaror» firibgar muqaddam to'rt marotaba sudlangan va ayni paytda ham axloq tuzatish ishlari jazosini o'tab kelayotgan bo'lishiga qaramasdan, yana o'z galar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatni sodir etdi. Bu safar «yeganning qusmog'i borligini» qonun himoyachilari ko'rsatib qo'ydi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

## Jinoyatga jazo muqarrar

## KECHIKTIRIB BO'LMAYDIGAN MAJBURIYAT

**Sud zalida bir muddatlik sukunatdan so'ng hukm o'qildi. Bu paytda kimdir boshini egdi, kimdir chuqur xo'rsindi. Gap faqat qonun ijrosi haqida emas, balki bir bolaning haqqi, bir onaning umidi va bir otaning bajarilmay qolgan majburiyati haqida edi.**



Jinoyat ishlari bo'yicha Xiva shahar sudida ko'rilgan navbatdagi ish jamiyatimizda tez-tez uchrab turadigan, ammo ko'p hollarda yetarlicha ahamiyat berilmaydigan muammoga zaldagilarning e'tiborini qaratdi.

Bekzod Xo'jayev turmush o'rtog'i bilan ajrashgach, sud qaroriga muvofiq, farzandi ta'minoti uchun aliment to'lashi belgilangan edi. Ammo u belgilangan mablag'ni uzoq vaqt davomida to'lamasdan keldi. Avvaliga unga

nisbatan ma'muriy chora ko'ril-di, ogohlantirildi. Biroq shundan keyin ham vaziyat yaxshi tomonga o'zgarmadi. Oylar o'tdi, qarz miqdori esa oshib boraverdi. Oqibatda alimentdan qarzdorlik qariyb 35 million so'mga yetdi. Bu, balki, kimlar uchundir shunchaki raqamdir. Ammo har bir shunday raqam ortida kimningdir taqdiri turadi. Ya'ni bu bolaning yemay qolgan shirinligi, kiymay qolgan kiyimi, o'z vaqtida davolana olmaganini, onaning bedor tunlari va o'rtanishlari...

Sud jarayonida ayblanuvchi o'z aybiga iqrar bo'ldi. U otasining og'ir kasalligi va moddiy qiyinchiliklar sabab alimentni vaqtida to'lay olmaganini aytib, qilmishidan pushaymon ekanini bildirdi. Ehtimol, hayot uni sinovlarga solgan bo'lishi mumkin. Ammo sud bir haqiqatni qat'iy eslatdi: «Farzand ta'minoti kechiktirib bo'lmaydigan mas'uliyatdir».

Chunki bolalik kutmaydi. Bolaning ehtiyoji imkon bo'lganda emas, aynan kerak paytda qondirilishi lozim. Sud barcha holatlarni o'rganib chiqib, Bekzod Xo'jayevni aybli deb topdi va unga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinladi.

Biroq bu voqeada eng og'ir jazo kimga berilganini, ehtimol, hayotning o'zi yaxshi biladi. Chunki ba'zan ajrimdan keyin er-xotin ayriladi. Ammo farzand hech qachon otasidan ajrab qolmasligi kerak. Aliment – shunchaki pul mablag'i emas. U – bolaning haqqi, otalik mas'uliyati, inson vijdonining o'lchovidir.

Bugun sud bir insonga hukm chiqardi. Ammo bu hukm jamiyat uchun ham jiddiy ogohlantirishdir. Zero, farzand taqdiriga befarqlikning bahosi har doim og'ir bo'ladi.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

# BOLALARGA BERING DUNYONI

(1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni)



Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

**Bolajon, sen kulgin, kulgingdan  
Yer-u ko'k barobar rang olsin.  
Bolajon, sen kulgin, kulgingdan  
Bu borliq baxtini tan olsin.**

Farzandlar – umrimiz mazmuni, bolalar insoniyat hayotining mohiyatidir. Ular borligi uchun tamaddun charxpalagi hamon aylanib turibdi.

Ko'zimiz quvonchi, ertamiz egasi bo'lgan bolajonlarni asrab-avaylash, komil insonlar etib tarbiyalash har bir ota-onaning orzusi sanaladi.

Go'daklar tabassumi – olam bezagi. Ayniqsa, 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida sayyoramiz bolajonlarning samimiy va beg'ubor kulgisi bilan yanada yasharib ketadi. Bu sana quyoshli diyorimizda ham o'zgacha intiqlik bilan kutiladi.

Azaldan bolajon bo'lgan xalqimiz shu kuni kundalik tashvishlarni bir chetga qo'yib, farzandlarini istirohat bog'lari-yu ko'ngilochar maskanlarga olib borishga oshiqadi. Ularga turli xil sovg'alar ulashiladi. Bu oilada mehr-muhabbat rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Manbalarga ko'ra, ushbu xalqaro sana 1925-yilda Jenevada bo'lib o'tgan bolalar farovonligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan umumjahon konferensiyasida ilk bor e'lon qilingan. BMT tashkil etilgach, bolalar huquqlarini himoya qilish tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi va bu sanani nishonlash yanada ommalashdi. Hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida ushbu bayram keng miqyosda nishonlanadi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1959-yil 20-noyabrda Bola huquqlari deklaratsiyasi hamda 1989-yil 20-noyabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Mazkur xalqaro me'yoriy hujjatlarni dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tan olgan va milliy qonunchiligiga tatbiq etgan. BMTning bolalar jamg'armasi – UNICEF esa dunyoning turli davlatlaridagi bolalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Erishilayotgan ijobiy natijalar bilan birga, dunyoda mavjud muammolar ham talaygina. Masalan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda 5 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 155 millionga yaqin bola majburiy mehnatdan aziyat chekmoqda. Shu o'rinda e'tirof etish

joizki, mamlakatimizda amalga oshirilgan izchil islohotlar natijasida bolalarning majburiy mehnatiga butunlay barham berildi.

O'zbekistonda bola huquqlari qonuniy asosda to'la himoyalangan. Mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun davlat va nodavlat tashkilotlar, ixtisoslashtirilgan institutlar faoliyat yuritadi. Xususan, Bolalar ombudsmani bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishining oldini olish, ularni tiklash, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan bola huquqlariga oid qonunchilikka rioya etilishini nazorat qiladi.

Bu borada Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, Milliy markaz aholi orasida bola huquqlarini targ'ib qiluvchi ma'naviyat ma'rifiy tadbirlar, o'quv kurslari va seminar-treninglar o'tkazib keladi. Bola huquqlarini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchiligimizni takomillashtirish, unga xalqaro huquqiy normalarni tatbiq etish borasida ham salmoqli natijalarga erishilgan. Shuningdek, bola huquqlariga doir o'nlab ilmiy hamda ommabop nashrlar chop etilgan.

Xuddi shuningdek, Ichki ishlar vazirligi tizimida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, qiyin ahvolga tushib qolgan yoki zo'rvonlikka uchragan bolalarni aniqlash va ularga huquqiy, ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi inspektor-psixologlar faoliyat yuritadi.



\*\*\*

Insonning insoniyligi, kamoloti uning kimdan, qanday tarbiya topganiga bevosita bog'liq. Zotan, eng yuksak insoniy fazilatlar va milliy qadriyatlar aynan tarbiya vositasida avloddan avlodga o'tadi.

Bugun butun jahonga O'zbekiston nomini dunyoga tanitayotgan yosh avlod vakillarining zafarlari ortida keksa avlodning beqiyos mehnati yotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, hozir Yevropaning yetakchi futbol jamoasida muvaffaqiyatli to'p surayotgan hamyurtimiz Abduqodir Husanovni futbol klubiga birinchi bo'lib uning buvisi Habiba aya yetaklab borgan. Yoki jahon kubogi sohibi, grossmeyster Javohir Sindarovga hali 4 yoshligidanoq bobosi, yuridik fanlar doktori, professor Komiljon Sindarov shaxmat sirlarini o'rgatgan. Javohirning o'qishi va xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishida esa uning buvisi, xalq ta'limi a'lochisi, ustoz pedagog Jamila Sindarovaning xizmati katta bo'ldi.

Nabiralar bobo va buvilarini jondan ortiq yaxshi ko'radilar. Bobo va buvilar esa nabiralarini o'z farzandlaridan-da azizroq, suyuqliroq deb bilishadi. Bu rishta – shunchaki yaqinlik emas, balki qalbdan qalbgacha tortilgan mehr ko'prigidir.

Nabira – insonning izi, ildizi, davomchisi, qaytib kelgan yoshligi va aslida uzaygan umridir.

\*\*\*

Hassos shoirimiz Hamid Olimjon buvisi aytib

bergan ertaklardagi mo'jizalar olamida ulg'ayganini mana bu o'lmas satrlarida chuqur minnatdorlik bilan ifoda etgan edi:

**Bolalik kunlarimda,  
Uyqusiz tunlarimda,  
Ko'p ertak eshitgandim,  
So'zlab berardi buvim.**

Ushbu samimiy e'tirofdan bilamizki, oddiygina o'zbek ayolining allasi va ertaklari xalqimizga mana shunday suyuqli ijdokorni taqdim etgan.

... Xizmat safarlari bilan yurtimizning shahar va qishloqlarini kezar ekanman, musiqa asboblarini ko'tarib olgan nabiralarini ergashtirib musiqa maktablari sari odimlayotgan, qo'lga to'p tutqazib sport maydonlariga, musobaqalarga yetaklab kelayotgan nuroniylarimizni ko'rib ko'zim quvnaydi. Turli tanlov va bellashuvlarda nevaralariga dalda bo'lib, ularni olqishlab turgan otaxon-u onaxonlarimiz bilan suhbatlashib bir haqiqatni anglayman: yoshi ulug'lari e'tiborli bo'lgan oilalarning farzandlarida bekorchi vaqt bo'lmaydi. Ular – ertamiz chempionlari, kelajagimiz ijodkorlari, istiqbolimiz egalari. Ular – mehr-muhabbatning, baxtning bolalari. Ular – nurdan bunyod nodir avlod.

Shu salohiyatli va asl avlod sizning, bizning, O'zbekistonimizning buyuk kelajagi bo'lib kamol topsin!

**Zulfiya MO'MINOVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi, shoira.**



Qoraqalpoq  
tilidagi matn.



Rus tilidagi  
matn.

# JASORATNING SO'NGGI NUQTASI



*Odatda biz osuda hayotni tabiiy deb qabul qilamiz, ammo uning ortida qanchadan-qancha insonlarning taqdiri, orzulari va hatto hayoti mujassamligini unutamiz. Shunday insonlar borki, ularning umri uzun emas, ammo mazmun va ma'no jihatidan asrga tatigulikdir. Serjant Yoqubjon Qodirov ana shunday qismat sohiblaridan biri edi.*

Norin tumanida tug'ilgan Yoqubjonning qalbida bolaligidanoq bir orzu — Vatanga xizmat qilish, yurt tinchligini himoyalash tuyg'usi uyg'oq edi. Bu shunchaki bolalik orzusi emas, balki uning hayotiga yo'l ko'rsatgan, qarorlariga ma'no bergan ichki chaqiriq edi. Ushbu niyat uni ichki ishlar organlariga boshladi va u Namangan shahar IIB JTSB ma'muriy tartibda hibsga olinganlarni konvoy qilish bo'linmasida xizmatini boshladi.

Hamkasblari uni intizomli, mas'uliyatli va burchiga sadoqatli inson sifatida eslashadi. U xavfdan chekinmas, og'ir vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmas, xizmatini vijdon bilan ado etardi. Chunki u uchun bu kasb oddiy ish emas, balki muqaddas burch edi.

2011-yilning 4-iyuni... Taqdirning eng og'ir sinovlaridan biri aynan shu kunga to'g'ri keldi. Sudning qarorini ijro etish vazifasi serjant Y.Qodirov zimmasiga yuklatildi. U muqaddam sudlangan va qonundan bo'yin tovlab yurgan fuqaroni majburiy tartibda olib kelishi kerak edi. Ammo bu oddiy xizmat topshirig'i kutilmagan fojiga aylandi.

Jinoyatchining uyida uni nafaqat qarshilik, balki vahshiyona hujum kutardi. Shisha idish bilan berilgan og'ir zarba Yoqubjonning boshiga tegdi. Og'ir tan jarohati olganiga qaramay, u o'z vazifasidan chekinmadi. Shu onda uning shaxsiy xavfsizligi emas, balki qonun ustuvorligi, xizmat mas'uliyati ustun keldi.

To'qqiz kunlik umid va iztirob... Hayot va o'lim orasidagi og'ir kurash. Shifokorlarning barcha sa'y-harakatlari, oila a'zolarining duolari, farzandlarining umidga to'la nigohlari — barchasi uni hayotga qaytarishga intildi. Ammo taqdir o'z hukmini chiqardi. Yoqubjon dunyodan ko'z yumdi.

— Turmush o'rtog'im bolaligidan ichki ishlar xodimi bo'lishni orzu qilgan.

Bu orzuga yetish uchun qattiq mehnat qildi, — deydi marhumning rafiqasi Nargiza Mo'minova. — Bugun o'g'limiz Abbasbek ham otasining izidan boryapti — IIV Akademiyasida tahsil olmoqda. Qizlarim Muxlisa va Mohira ham ilm yo'lida. Men ularni otasi orzu qilgandek insonlar qilib tarbiyalashga harakat qilyapman.

Darhaqiqat, insonning umri uning qancha yashagani bilan emas, balki qanday yashagani bilan o'lchanadi. Yoqubjon Qodirov o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, yovuzlik yo'lini to'sdi. U nafaqat qonunni himoya qildi, balki jamiyat tinchligi uchun o'z jonini fido etdi.

Uning ortida uch nafar farzandi, ezgu xotira va ibratli hayot yo'li qoldi.

Yoqubjon Qodirovning nomi nafaqat oilasi, balki butun jamiyat xotirasida burch, sadoqat va jasorat timsoli sifatida abadiy saqlanib qoladi. Uning hayot yo'li kelajak avlod uchun haqiqiy vatanparvarlik namunasidir.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

# HALOLLIK HAYOTIY TAMOYILI EDI

**B**utun borlig'ini o'zi tanlagan kasbiga bag'ishlab, adolat va halollikni hayotiy e'tiqod deb bilgan insonlarni xotirlash barchamiz uchun ham qarz, ham farz. Ichki ishlar organlari tizimidagi ko'p yillik faoliyati davomida o'zidan munosib iz qoldirgan iste'fodagi mayor, marhum Qurbandurdi Mambetjanov qasamyodiga sodiq fidoyi insonlardan biri edi.

... Toshkent davlat avtomobil yo'llari institutini imtiyozli diplom bilan tamomlagan Qurbandurdi Mambetjanov mehnat faoliyatini To'rtko'l tumanidagi avtobazada boshladi. Yosh kadrning salohiyati va ishga bo'lgan munosabati rahbariyat nazaridan chetda qolmadi. Uning tashabbuskorligi va talabchanligi inobatga olinib, IIB boshlig'ining shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlanadi.

Q. Mambetjanov shaxsiy tarkib o'rtasida nafaqat temir intizom o'rnatish, balki bo'limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. Xususlan, 1992–1994-yillari tuman IIB yangi binosining barpo qilinishida yuksak tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etdi.

Bundan tashqari, soha tarixi va xodimlarning ko'rsatgan jasoratlarini kelajak avlodga yetkazish maqsadida Ichki ishlar bo'limida «Shon-sharaf» muzeyini tashkil etish va uni nodir eksponatlar bilan boyitishga munosib hissa qo'shdi. Bugungi kunda 200 dan ortiq eksponatga ega bo'lgan ushbu maskan ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'priq vazifasini o'tab kelmoqda.

**Ta'kidlash joizki, Qurbandurdi Mambetjanovning olijanob xislatlaridan yana biri — inson qadri hamma narsadan baland qo'yganida edi. O'sha davrdagi qiyinchiliklarga qaramay, u 6 nafar xodimning uy-joy bilan ta'minlanishiga boshqosh bo'lgani ushbu fikrimizning tasdig'idir.**

Qurbandurdi Mambetjanov keyingi yillarda tuman ichki ishlar organlarida turli rahbarlik lavozimlarida samarali faoliyat

olib bordi. Bu davr mobaynida u nafaqat talabchan rahbar, balki yosh xodimlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi mehribon va jonkuyar ustoz sifatida ham hurmat-e'tibor qozondi.

U 2003-yilda pensiyaga chiqqach ham, tizimdan aslo uzoqlashmadi. Tuman IIB Faxriylar kengashining faol a'zosi sifatida boy xizmat tajribasini yosh xodimlarga o'rgatish, ularni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda davom etdi. Umrining so'nggi damlarigacha soha rivojiga hissa qo'shib kelgan ibratli umr sohibi 2018-yilda dunyodan ko'z yumdi.

Qurbandurdi Mambetjanov turmush o'rtog'i Zulayho opa bilan birga to'rt nafar farzandni el koriga yaraydigan insonlar etib tarbiyalagan. Bugungi kunda katta o'g'li Qahramon Mambetjanov

O'zbekiston Milliy universiteti professori, keyingi o'g'li Baxtiyor hokim yordamchisi, Jaloliddin esa tadbirkorlik sohasida el xizmatida. Qizi Zulfiya oila be-

kasi sifatida farzandlar tarbiyasi bilan band.

— Otamiz biz uchun hamisha o'rnak bo'lgan, — deydi Baxtiyor Mambetjanov. — Vaqti tig'iz bo'lishiga qaramay, ta'lim-tarbiyamizni qat'iy nazorat qilar, bilim olishimiz uchun hamma sharoitlarni yaratib berardilar. Hozir otamning hamkasblari, shogirdlari tez-tez uyimizga kelib turishadi. «Otang halol va pok inson edi», deya eslashadi. Farzandlar uchun eng katta baxt — otasi bilan faxrlanishdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hamkasbimiz — marhum Qurbandurdi Mambetjanov bosib o'tgan sharafli yo'l — kelgusi avlodlar uchun sadoqat, halollik va haqiqiy vatanparvarlik darsi bo'lib xizmat qilaveradi.

**Bekpulat AVAZMETOV,**  
To'rtko'l tumani IIB  
Faxriylar kengashi raisi,  
iste'fodagi podpolkovnik.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.




Munosabat

Ichki ishlar organi xodimi bo'lish – Vatanga sadoqat va el osoyishtaligi uchun yuksak mas'uliyat va sharaftir. Doim el xizmatida bo'lgan osoyishtalik posbonlari o'z zimmasiga nafaqat yuksak mas'uliyatni, balki minglab insonlarning taqdiri va xavfsizligini ham oladi.

# TESKARI TAQILGAN POGON

yoxud xizmat libosi o'yinchoq emas



**Uchqun TILLAYEV, IIV Madaniyat saroyi boshlig'i, polkovnik, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist:**

– Ham ichki ishlar organi xodimi, ham san'at sohasi vakili sifatida buni juda xunuk holat, deb baholayman. Afsuski, bu qo'pol xato bundan bir yil avval sodir bo'lgan edi. O'shanda telenovella ijodkorlari bilan bog'langanimizda, ular xatolarini tan olib, bunday holat boshqa takrorlanmasligini bildirishgandi. Biroq yaqinda xuddi o'sha telenovella takroran efrida ketibdi. Bu albatta yana haqli e'tirozlarni keltirib chiqardi.

Men buni san'atdagi mutlaqo savodsizlarcha yondashuv, mas'uliyatsizlik deb hisoblayman.



Shu bilan birga, xizmat libosini kiyib, tizim xodimlarining mashaqqatli faoliyatini haqqoniy va ibratli kontentlar orqali millionlab kuza-tuvchilarga yetkazayotgan ijodkorlar ham talaygina. Bunday professional yondashuv faqat olqishga sazovor. Zero, xizmat formasi ortida yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida mardlarcha jon fido qilgan o'g'lonlarning porloq xotirasi mujassam. Birgina dalil: mustaqillik yillarida xizmat vazifasini bajarish chog'ida 118 nafar ichki ishlar organi xodimi halok bo'ldi. Bu – shunchaki oddiy raqam emas, bu – Vatanga bo'lgan sadoqat ifodasi.

Afsuski, yaqinda mamlakatimizdagi xususiy telekanallardan

birida efriga uzatilgan telenovellada xunuk manzaraga guvoh bo'ldik. Unda ichki ishlar organi xodimi rolini ijro etgan aktyor xizmat libosini yaqqol kamchiliklar bilan kiygani yetmaganidek, «safdor» maxsus unvoni pogonini yelkasiga teskari taqib olgan edi. Shu o'rinda «Nahotki, tasvirga olish jarayoniga ekspertlar jalb etilmagan bo'lsa?», «Nima uchun telekanal mas'ullari efir oldidan bu qo'pol xatoga e'tibor qaratishmagan?» kabi haqli savollar kishini o'ylantirmay qo'ymaydi.

Bu kabi holatlar yuzasidan qonunchilik talablari, sohaviy tartib-qoidalar va masalaning huquqiy jihatlariga oydinlik kiritish maqsadida ekspertlar fikri bilan qiziqdik.

**Shohruz ISMOILOV, kinoaktyor:**

– Ichki ishlar organi xodimi xizmat libosini kiyish menga nafaqat aktyorlik mas'uliyatini, balki cheksiz g'urur va sharaf tuyg'usini baxsh etadi. «Izquvar», «Jinoyat jazosiz qolmaydi», «Ehtiyot bo'ling, firibgar» seriallarida, shuningdek, «Avval Vatan, keyin jon!» qo'shig'ining klipida forma kiygan lahzalarimda Vatanning asl himoyachilari yelkasidagi ulkan mas'uliyat yukini qalban his qilganman. Mana shunday sharafli kasb egalarining obrazini gavdalandirish va ularning jasoratini tomoshabinga yetkazib berish men uchun yuksak baxt.

Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, bilim va tushunchaning yetarli emasligi oqibatida ayrim ijodkorlar qo'pol xatolarga yo'l qo'yishadi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan «teskari taqilgan pogon» voqeasini bir aktyor sifatida juda og'ir qabul qildim. Agar ular suratga olish jarayoniga soha ekspertlarini jalb qilishganida, bunday noxush holat va tizimga nisbatan hurmatsizlik aslo yuzaga kelmas edi.



Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, eng og'ir va xavfli vaziyatlarda birinchi bo'lib ko'ksini qalqon qiladigan mardlar aynan ichki ishlar organlari xodimlaridir. Ko'chalarda bexavotir yurgan farzandlar kulgisi, onalar xotirjamligi va otalar duosi aynan ularning fidokorona xizmatining mevasi. Shunday ekan, ularni va xizmat libosini hamisha hurmat qilaylik! Zero, bu formada Vatan ramzi, yurt ishonchi, xalq umidi mujassam.

**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-muxbir,  
katta serjant.

Yelkaga pogon taqilgan kundan boshlab Vatan va xalq manfaatlari birinchi o'ringa chiqadi. Pogondagi yulduzchalar ko'paygani, katalashgani sayin uning zimmasidagi mas'uliyat va javobgarlik ham ortib boradi.

Xizmat libosiga munosib bo'lish uchun xodimlar qator sinovlardan o'tadi, tinimsiz izlanadi. Bu hamma ham xizmat formasini kiyish huquqiga ega bo'la olmasligini, tizimning o'z qat'iy talablari borligini anglatadi.

Bundan bir necha yillar oldin ayrim kulgi jamoalari va vaynerlarning ichki ishlar organlari libosida qilgan beo'xshov hazillari jamoatchilik e'tiroziga sabab bo'lgan

edi. Afsuski, ijtimoiy tarmoqlarda ham xizmat kiyimini belgilangan talablarga zid ravishda, pala-partish kiyib chiqish holatlari uchrab turibdi. Aksariyat tarmoq foydalanuvchilari bunday kontentlarga keskin salbiy munosabat bildirib, izohlarda mualliflarni «forma va pogonni hurmat qilish»ga chaqirgani e'tiborga molik.

**Bexzod RISKIMOV, IIV Tashkiliy departament Yuridik ta'minlash boshqarmasi Huquqiy targ'ibot va inson huquqlari bo'limi boshlig'i, kapitan:**

– Ekrandagi kichik bir xato ham butun bir tizim nufuziga, imijiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xizmat libosiga nisbatan hurmatsizlik ichki ishlar organlari xodimlarini obro'sizlantirishga qaratilgan harakat deb baholanadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, harbiy yoki maxsus kiyimboshni bunday huquqqa ega bo'lmagan shaxslar tomonidan kiyilishi qat'iy taqiqlanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 209'-moddasiga muvofiq, ushbu huquqbuzarlik formali kiyim-boshni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qonunlarga rioya qilish – har bir fuqaroning burchi. Harbiy va maxsus unvonlar hamda xizmat kiyimlariga bo'lgan hurmat jamiyatda huquqiy madaniyat yuksak ekanligini ko'rsatadi. Tartib-qoidalariga amal qilish esa qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Shunday ekan, fuqarolarimizdan, ayniqsa, ijodkorlardan bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlarini so'rab qolamiz.



## Jazoni ijro etish tizimida

HAR BIR XODIMNING  
BURCHI

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyatni yuksaltirish, xizmat intizomini mustahkamlash va qonuniylikni ta'minlash nafaqat soha uchun, balki inson huquqlarini himoya qilishda ham muhim o'rin tutadi. Shu boisdan IIV huzuridagi JIED Birinchi mintaqaviy hududi 48-sonli manzil koloniyada mazkur yo'nalishlarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xodimlarning ma'naviyatini, bilim saviyasini oshirish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida Islom sivilizatsiyasi markazi, Temuriylar tarixi davlat muzeyida, «Shahidlar xotirasi» xiyobonida, «G'alaba bog'i»da, poytaxtimizdagi qator teatrlarda bo'lishdi. Mingga yaqin kitob fondiga ega mo'jaz kutubxona xodimlar ixtiyorida.

Yosh xodimlarning xizmatga tez moslashib ketishlari uchun ular bilan yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o'tkazilyapti. Ushbu jarayonda halollik va mas'uliyat bilan xizmat qilishlari lozimligi ta'kidlanayapti. Shuningdek, faoliyati davomida uchrashi mumkin bo'lgan og'ir va murakkab vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish bo'yicha yo'riqnomalar berilmoqda.

Xodimlarning yashash sharoitlari, oilasida, mahallasida tutgan o'rnini o'rganish maqsadida o'rganish ishlari olib borilmoqda. O'rganishlar natijasida oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan xodimlarga uy-joylarini ta'mirlash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 125 barobari miqdorida foizsiz ssuda pullari ajratildi.

Muassasa shaxsiy tarkibining kasbiy bilimlari va mahoratini oshirish uchun reja asosida o'quv mashg'ulotlari o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, yaqinda «Kasbiy madaniyat va xizmat intizomiga rioya qilish – har bir xodimning burchi» mavzusida o'quv mashg'uloti tashkil qilindi.

Tizimli ravishda olib borilayotgan yuqoridagi kabi ishlar o'z samarasini bermoqda. Joriy yilning o'tgan besh oyi davomida xodimlar tomonidan birorta ham xizmat intizomi va qonuniylikni buzish bilan bog'liq salbiy holatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmagani so'zimizning isbotidir.

Javlonbek NIYOZOV,  
kapitan.

## Psixolog maslahati

SAMARALI USUL –  
BOSIM EMASNOVERBAL HARAKATLARNI  
O'QISHDAGI XATOLAR

## Professional yondashuv nega muhim?

Noverbal muloqot insonning ichki holati, munosabati va niyati haqida muhim signallar beruvchi noyob manbadir. Ammo uni noto'g'ri talqin qilish jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida bunday xatolar qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Quyida amaliyotda eng ko'p uchraydigan va xavfli hisoblangan xatolar haqida so'z yuritamiz.

**Tasdiqlovchi og'ish** – ong «filtri». Bu holatda xodim ongida avvaldan shakllangan gumonni tasdiqlaydigan belgilargagina e'tibor qaratib, boshqa muhim ma'lumotlarni inkor etadi. Masalan, «shaxs shubhali» degan fikr paydo bo'lsa, uning har bir harakati shu gumonni quvvatlash uchun «dalil»ga aylanishi mumkin. Bunday vaziyatda professional yondashuv muqobil tushuntirishlarni ham majburiy tarzda ko'rib chiqishdan iborat.



**Stereotip fikrlash** – xavfli qisqartirilgan yo'l. Yosh, tashqi ko'rinish, millat yoki kasbga qarab inson haqida tezkor xulosa chiqarish yana bir jiddiy xatodir. Stereotiplar tahlilni yengillashtirgandek ko'rinsa-da, amalda u noto'g'ri qarorlarni mustahkamlaydi.

Bir belgiga ortiqcha ishonish noto'g'ri xulosalar manbayi. Ko'zni olib qochish, yuzga qo'l tegizish yoki ovozning o'zgarishi kabi belgilar ko'pincha yolg'on bilan bog'lanadi. Ammo bu belgilarning sababi stress, charchoq yoki oddiy odat ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun har qanday belgi faqat uch shartga javob berganda ahamiyat kasb etadi: *u shaxsning odatiy xulqidan farq qilsin, muhim mavzu bilan vaqt jihatidan bog'liq bo'lsin, boshqa belgilar bilan birgalikda kuzatilsin.*

**Suhbatdoshni «fosh qilish»ga urinish** – samarasiz bosim. Ayrim hollarda xodim keskin savollar, qattiq nigo yoki bosim orqali yolg'onni tezda aniqlashga harakat qiladi. Lekin bunday yondashuv natija bermaydi: hatto rost gapirayotgan insonda ham stress ortib, noverbal signallar noaniqlashadi. Natijada stress yolg'on deb noto'g'ri baholanishi mumkin. Samarali usul – bosim emas, balki izchil va nazoratli muloqotdir.

Odatda o'z noverbal xulqini nazorat qilmaslik ham ko'p kuzatiladi. Noverbal tahlil faqat boshqani kuzatish emas. Xodimning o'zi ham doimiy ravishda signallar yuborib turadi. **Qovoq uyish, sovuq nigo yoki shubhali tabassum suhbatdoshda himoya reaksiyasini uyg'otishi mumkin. Bu esa muloqot sifatini pasaytiradi.** Demak, professional xodim o'z kommunikativ qiyofasini ham ongli ravishda boshqarishi shart.

**Kuzatuvlarni qayd etmaslik** – subyektivlikka yo'ldir. Suhbat jarayonida sezilgan har qanday o'zgarish yozma tarzda qayd etilishi kerak. Masalan, qaysi savolda shaxs bezovtalangani aniq belgilab qo'yilsa, keyingi tahlil aniq va xolis bo'ladi. Aks holda umumiy taassurotlar ustun kelib, xulosalar subyektiv tus oladi.

**Noverbal muloqotni to'g'ri tahlil qilish** – bu faqat kuzatish emas, balki tizimli, xolis va tanqidiy fikrlashni talab qiluvchi jarayondir. Har bir belgi ortida turli sabablar yotishi mumkinligini anglash, muqobil versiyalarni ko'rib chiqish va o'z xulqini nazorat qilish professionallikning muhim ko'rsatkichidir. Ana shundagina noverbal signallar ishonchli axborot manbayiga aylanadi.

Naufal TURG'UNOV,  
kapitan,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Касбидан камол топганлар

# МУВАФФАҚИЯТНИНГ ЕТТИ ТАЯНЧИ

**«Шухрат» медали соҳиби, истеъфодаги подполковник Алишер Рустамовнинг босиб ўтган ҳаёт йўли шарафли.**

...2010 йил июль ойи. Аини ёз чилласи. Қуёш тиккага келган пайт. Ҳаво қизигандан қизияпти. Алишер Рустамов икки нафар ходими билан беш соатдан бери ёғоч уюмлари панасида пистирмада турибди. Қўшни уйда ўта хавфли рецидивист яшайди. У етти йилдан бери тутқич бермайди. Тезкор маълумотларга қараганда, соат 15–16 ларда оиласининг ҳолидан хабар олиш учун келиши керак.

Қирқ даража иссиқда бир неча соат қимирламай мана шу ҳолатда ётиш кишидан махсус тайёргарлик, чидам тақозо қиларди. Ходимлар бунга тайёр эди. Ва ниҳоят соат ўн олтиларда 40–45 ёшлардаги шахс дарвозани очиб, ичкарига кирди. У ҳеч нарсани сезмасдан қўлидаги сумкасини унинг зинасига қўйиб эшикни очмоқчи бўлди. Шу сонияда елкасини бақувват қўл босди. Бир зумда у қўли орқага қайрилган ҳолда ерда ётарди. Алишер Рустамов ўз ишининг устаси бўлгани учун жиноятчи қаршилиқ кўрсатишга ҳам улгурмади.

...2014 йилда Тожикистон Республикасидан Россияга гиёҳвандлик воситаларини ўтказиш билан



шуғулланаётган жиноий гуруҳнинг изига тушилди. Калаванинг бир учи Қозоғистонга, ундан Россиянинг Перм шаҳрига бориб тақаладиган таъминот занжирига Ховос туманидаги 40–45 ёшлардаги икки нафар аёл ҳам жалб қилинганди. Уларнинг вазифаси Тожикистондан ўтказилган «юк»ни қабул қилиб, Сирдарё тумани орқали Қозоғистондаги гуруҳ аъзосига етказиб беришдан иборат эди.

Ушбу аёллар Алишер Рустамов раҳбарлигидаги ТВБСО ходимлари томонидан Ховос туманидан чиққан заҳотиёқ кузатувга олинди. Гулистон шаҳрида тўхтатилиб, жомадонлари кўздан кечирилди. Заҳри қотил пухталиқ билан жомадонларнинг ички яширин

қаватига беркитилганди. Тарозида тортиб кўрилганда, жами 12 килограмм героин олиб ўтилаётгани аниқланди.

Операция шу тугамади. Ходимлар олдида ушбу жиноий гуруҳнинг Қозоғистон Республикасидаги аъзоларини ҳам фош этиш вазифаси қўйилади. Тадбир икки соат ичида ўтказилмаса, улар сезиб қоларди. Алишер Рустамов масъулиятни ўз зиммасига олиб, уч нафар ходими билан Сирдарё туманидаги божхона постига етиб борди.

Келишилган соатда аёллар жомадони билан божхона постини кесиб ўтишади. Нейтрал ҳудудда уларни полвонгина, ёши ўттизларда бўлган йигит кутиб олади.

У жомадонларни қўлга олиши билан ўзи ҳам қўлга олинади. Кўп ўтмай жиноий тўданинг Тожикистон ва Қозоғистондаги бошқа аъзолари ҳам фош этилиб, жиноий жавобгарликка тортилади.

Лавҳамиз қаҳрамони устоз сифатида ҳам ҳурмат қозонган. Унинг шогирдларидан сержант Улуғбек Эргашев Оқолтин тумани ИИБ ЙҲХБ бошлиғи, майор Шухрат Турсунов эса Сирдарё вилояти ИИБ ЖТСБ ППХ взводи командири. Шогирдларидан «Содиқ хизматлари учун» медали соҳиби, подполковник Аъзамжон Ортиқбоев шундай дейди:

– Устозимиз раҳбар сифатида талабчан, интизомни биринчи ўринга қўярди. Ўзидаги билим ва тажрибани бошқалар билан бўлишарди. Ҳеч бир ходимнинг муаммосига бепарқ эмасди. Мен унинг қўл остида тўққиз йил ишлаб, жуда кўп нарсаларни ўргандим.

Алишер Рустамов 2016 йилда иззат-икром билан пенсияга чиқади. Бугунги кунда Ўзбекистон Миллий гвардияси Ихтисослашган ўқув маркази тактика ва махсус тактика тайёргарлиги бўйича ўқитувчиси сифатида ёш кадрларга билим ва тажрибасини ўргатиб келмоқда.

**Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ, ўз мухбиримиз.**

*Сирдарё вилояти.*

Кибержиноятчилик

## «ОСОН ДАРОМАД»НИНГ ОФИР ОҚИБАТИ

**Рақамли технологиялар тараққиёти бугун ҳаётимизга янги имкониятлар, қулайликлар билан бирга жиддий хавфларни ҳам олиб кирди. Айниқса, криптовалюта бозорида осон ва тез бойиш истаги айрим фуқароларни қонунбузарлик кўчасига етакламоқда. Нафс тузоғига тушиб, қисқа вақтда катта даромад топишни кўзлаганлар ўзлари жиноят иштирокчисига ёки кибержиноят қурбонига айланиб қолишмоқда.**

Кун бўйи виртуал оламдан чиқмайдиган Гули Қобилова (исм-шарифи ўзгартирилди) ҳалол меҳнат қилиш ўрнига, бел оғритмай пул топишни афзал билди. Шу мақсадда икки йил олдин Telegram ижтимоий тармоғида «криптовалюта алмашинуви»ни ўргатувчи онлайн курсга тўлов қилиб, сабоқ ола бошлайди.

Ўқув курсини тугатгач, Г.Қобилова мобил телефонига «Binance» иловасини юклаб олади ва фойдаланувчи сифатида ҳисоб қайдномасини рўйхатдан ўтказиб, шахсий ҳисобрақам очади. Шу тариқа, крипто-биржада аноним крипто-активлар савдоси билан фаол шуғуллана бошлайди. Даромадларини яшириш ва изни йўқо-

тиш мақсадида рақамли ҳамёнига бир қанча электрон ҳисобрақамларни ҳам бириктиради.

«Қаҳрамонимиз» ҳар куни турли харидорларга электрон шаклда миллий валютага АҚШ долларини криптовалюта орқали сотиш билан машғул бўлади.

Ўтган йилнинг 23 январь кунини у «Binance» платформаси орқали номаълум харидордан 2 754 093 сўм қабул қилиб олиб, эвазига унинг ҳисобига 209,58 АҚШ доллари эквивалентидаги крипто-активни ўтказиб беради. Аслида, бу маблағ бошқа бир фуқародан фирибгарлик йўли билан ўғирланган пуллар эди. Жараёнга аралашиб қолган Г.Қобилова телефон аппарати эҳтиётсизлиги туфайли бутунлай



синиб, иловадаги ҳисоб қайдномасига кириш имконини йўқотгунга қадар ушбу ноқонуний фаолиятини давом эттиради.

Мамлакатимиз қонунчилигига кўра, крипто-активлар айланмаси билан боғлиқ фаолият фақат белгиланган тартибда лицензия олган ҳолда амалга оширилиши лозим.

Г.Қобилова эса крипто-активларни қонунга хилоф равишда олиш, ўтказиш ёки айирбошлаш билан такроран шуғулланиб, қисқа вақт ичида жами 14 688 АҚШ доллари ҳамда 192 356 438 сўмлик маблағни крипто-биржада олди-сотди қилган.

Мазкур ҳолат юзасидан вилоят ИИБ Кибержиноят-

ларга қарши курашиш бошқармаси ҳузуридаги тергов гуруҳи томонидан Г.Қобиловага нисбатан Жиноят кодексининг тегишли моддаси билан жиноят иши қўзғатилди. Суд ҳукми билан унга тегишли жазо тайинланди.

Хулоса шуки, интернетдаги ҳар қандай «осон даромад» таклифи ортида жиноий тузоқ яширинган бўлиши мумкин. Айниқса, молиявий операциялар билан боғлиқ фаолиятни амалга оширишда қонун талабларини чуқур ўрганиш ва уларга қатъий риоя қилиш шарт. Зотан, қонуний йўл, ҳалол меҳнат билан топилган даромад ҳаммиша барқарор ва баракали бўлади.

**Шаҳзодбек БЕРДИАЛИЕВ, катта лейтенант. Содиқ РАҲИМОВ, ўз мухбиримиз.**

*Қашқадарё вилояти.*

## Hududlarda

## JIZZAX: BIR



## TASHVISHLI QO'NG'IROQ

Oddiy kunlarning biri. **Tonggi soat 6:00.** Viloyat IIB Tashkiliy boshqarma «102» xizmati navbatchilik qismida tajribali xodim, safdor O'tkirxon Asrorov navbatchiligida qo'ng'iroq jiringladi. Navbatchi shoshilinch chaqiruvni qabul qilar ekan, shoshmasdan zarur ma'lumotlarni qayd qildi. Go'shakning narigi tomonidagi ayol esa hayajon va qayg'u aralash bir gapni qayta-qayta takrorlar edi:

–Yordam beringlar! Qo'yxonam-

ga o'g'ri tushibdi. Qo'ylarim yo'q, qo'ylarim yo'q... qo'ylarim... Oxirgi so'zlar past eshitildi, go'shakda piqillagan yig'i ovozi...

Navbatchi darhol voqeani o'g'ri-lik jinoyati sifatida ro'yxatdan o'tkazdi va xabarni tezkor xizmatlarga tarqatdi. Bir vaqtning o'zida patrul-post xizmati, profilaktika, jinoyat qidiruv bo'limi, tergov-tezkor guruhi, ekspert-kriminalistika xizmati, kinologiya xizmati harakatga keltirildi.

## HAR BIR IZ – DALILGA KALIT

**Soat 6:30.**

Bu vaqtda tergov-tezkor guruhi ham yetib keldi. 20 km masofani qisqa muddatda bosib o'tgan guruh tarkibida shu kuni viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi bosh mutaxassisi, podpolkovnik Keldiyor Alibekov va katta ekspert, mayor Rufat Buzorboyev navbatchilikda edi. Ular ish qurollari to'plamini ochib, darhol ishga kirishishdi. Qo'raning orqa qismida kesilgan sim to'siqdan barmoq izlari va metall kesish quroliga doir izlar olindi. Yerdagi qolgan oyoq kiyim izlari



maxsus gipsli qolip orqali mustahkamlanib, daliliy ashyo sifatida rasmiylashtirildi. Qo'ylar olib chiqilgan yo'lakda qo'y-qo'zilar tuyoqlarining va katta o'lchamdagi oyoq kiyim izlaridan jinoyatchilarning harakat yo'nalishi belgilab chiqildi. Kriminalistlar mazkur izlarni fotoqaydnoma qilib, ularning o'lchami va

o'ziga xos belgilarni tasvirga olishdi.

Ko'p o'tmay chorak asrlik tajribaga ega podpolkovnik K. Alibekov dastlabki xulosaga keldi: jinoyatni kamida ikki nafar shaxs, tungi soat 2:00-2:30 lar oralig'ida sodir qilgan bo'lishi mumkin. Olingan barcha namunalar tekshirish uchun markazga olib ketildi.

## BIRINCHI HALQA

**Soat 06:16** da patrul ekipaji birinchi bo'lib voqea joyiga yetib keldi. Sharof Rashidov tumani «Qulpisar» mahallasidagi xonadonlarning birida qo'ra oldida uy egasi jonsarak, tinimsiz uyoq- bu yoqqa borib kelar, atrofida oila a'zolari ora-sirada yo'lga qarab qo'yishardi.

Qo'ra atrofi sinchiklab ko'zdan kechirilganda, uning orqa tomonidagi sim to'siq kesib tashlangani ma'lum bo'ldi. Yog'och eshik sindirib ochilgan, ichida yem idishlari ag'darilib, xashaklar sochilib yotardi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, nomalum shaxslar tun qorong'isidan foydalanib, qo'yxonani buzib kirgan va 4 ta qo'y, 1 ta qo'zini olib chiqib ketgan.

Viloyat IIB JXX JTSB PPXB tumanlararo otryadi guruh komandiri, kichik ser-



jant Javohir Sodiqov vaziyatni tezkor baholadi. Avvalo hudud tashqi va ichki perimetr bo'yicha nazoratga olindi. PPX mashinasining shiddat bilan kelgani

qo'ni-qo'shning e'tiborini tortmay qolmadi, albatta. Xodimlar hovlida to'plangan fuqarolar, ayniqsa, jonsarak uy egasini ham chetga olishdi.

Chunki bu harakati bilan ular jinoyatchilar qoldirgan

izlarni chalkashtirib qo'yishi mumkin edi.

**Soat 6:18.** Voqea joyiga mahalla profilaktika inspektori, mayor Bobir Qodirov yetib keldi. Inspektor darhol ishga kirishdi: yaqin atrofdagi kuzatuv kameralarining videotasvirlarini kuzatishga kirishdi. Yaqindagina mahallaning barcha asosiy ko'chalariga 12 ta kuzatuv va yuzni tanish xususiyatiga ega kameralar o'rnatilgan edi. Hudud to'liq nazoratga olingach, tergov-tezkor guruhi uchun barcha sharoit tayyorlab qo'yildi. Bu esa keyingi tekshiruvlarni tez, aniq va dalillarga asoslangan holda olib borish imkonini berdi.

## IT IS OLDI

**Soat 6:40.** Bu vaqtda viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya bo'limi xodimlari ham voqea joyida tekshiruvni boshlab yuborishgan, kichik inspektor, safdor Akmal Eshonqulov «Rita» laqabli xizmat iti bilan iz olib, o'g'ringing izidan tushgandi. Ular 3 yildan buyon birgalikda ko'plab jinoyat izlarini voqea joyidayoq aniqlashga muvaffaq bo'lishgan. Bu safar ham shunday bo'ldi: kinolog qo'ra atrofini diqqat bilan ko'zdan kechirib, itga o'g'irlik sodir etilgan joydan olingan ashyoviy dalillardan birini hidlatdi. Xizmat iti hovli atrofini bir necha soniya aylanib chiqqanidan so'ng, kesilgan sim to'siq tomon keskin harakatlana boshladi. U yerdan is olib, yugurib ketdi. Biroz masofadan so'ng u tuproq

yo'l yoqasida to'xtab, qat-tiq hurib belgi berdi. Shu joyda g'ildirak izlari va hayvonlarni olib o'tishda qolgan izlar ko'rindi. Safdor A.Eshonqulov xizmat itining harakatiga tayanib, gumonlanuvchilar yo'nalishini belgiladi.

Dastlabki xulosalarga ko'ra, jinoyat oldindan rejalashtirilgan va o'g'irlangan mollar transport vositasida olib chiqib ketilgan. Ballon o'lchamlaridan ulovning «Nexia» mashinasi ekanligi taxmin qilindi.

**Soat 8:00.** Podpolkovnik Keldiyor Alibekov barcha ashyoviy dalillardagi barmoq izlari kimga tegishli ekanligi haqidagi xulosani tezkor-tergov guruhi komandiriga taqdim etdi.

**Soat 8:45.** Qishloqqa kirish va chiqish yo'llaridagi kuzatuv kameralari

# JINOYAT IZIDAN

## MOL BOZORIDAGI TOMOSHA

**Soat 10:00.** Olib borilgan tezkor ma'lumotlar tahlili davomida o'g'irlangan qo'ylar qo'shni tuman markazidagi mol bozoriga olib ketilgani haqida ma'lumot kelib tushdi. Shu zahotiy qo'ylar qidiruv xodimlari mol bozori hududiga yo'naltirildi. Xodimlar bozor atrofini yashirin tarzda nazoratga olib, kirish-chiqish yo'laklarida kuzatuvni kuchaytirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, bozorning chekka qismida ikki nafar shaxs hujjatsiz holda 4 ta qo'y va 1 ta qo'zini arzon narxda sotishga uringani aniqlandi. Shundan so'ng maxsus reja asosida xodimlar ularni qurshovga oldi. Gumonlanuvchilardan biri qochishga uringan bo'lsa, ikkinchi shaxs voqea joyining o'zida qo'lga olindi. Tekshiruv jarayonida sotuvga olib chiqilgan qo'ylar jabrlanuvchiga tegishli ekani tasdiqlandi. Jinoyatchilarning ust-boshi xolislar ishtirokida tintib ko'rilganda, yoshrog'ining yonidan telefon apparati, sigaret qutisi bilan birga oq kukun solingan xaltacha topilgani xodimlarni sergak torttirdi. Holat yuzasidan tergovga qadar surishtiruv harakatlari boshlandi.

## O'G'RILIK BOSHQA JINOYATNI HAM FOSH ETDI

**Soat 14:00.** Jizzax shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi, katta leytenant Begzod Asrorov, ayniqsa, giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bog'liq holatlarni hazm qilolmaydi. Bu gal ham qarshisida pul uchun mol o'g'irlagan devday yigit o'tiribdi. Aynan uning yonidan oq kukun solingan xaltacha topilgan.

Qo'lga olingan gumonlanuvchi dastlab o'g'irlikni tan olmadi. Xaltacha to'g'risida savol berilganida esa jazavaga tushdi. Go'yoki qo'ylar uning o'ziniki, xaltachaning qayerdan cho'ntagida paydo bo'lgani unga qorong'u. Ammo ekspertiza xulosalari uning voqea joyida bo'lganini tasdiqladi. Tibbiy tekshiruv davomida esa u jinoyatni giyohvandlik mod-



dasi ta'sirida sodir etgani ma'lum bo'ldi. Tergovchi Begzod Asrorov uning telefonini raqamli ekspertizaga yubordi. Telefonda giyohvandlik moddasi yetkazib berish yozishmalari, elektron to'lovlar, «zakladka» manzillari aniqlandi. Jinoyat qidiruv xizmati xodimlari qo'shma tadbirga tayyorgarlik ko'ra boshladilar.

## SO'NGGI SAVDO

**Soat 22:00.** Tezkor ma'lumotlar asosida jinoyat qidiruv va tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik batalyoni qo'shma operatsiya o'tkazdi. Gumonlanuvchi muntazam borib yurgan kvartira aniqlanib, tezkor guruh manzilga kirib bordi. Tintuv vaqtida sintetik narkotik moddalar, qadoqlash vositalari, elektron tarozi, ko'plab SIM-kartalar, bank kartalari topildi. Kvartiradagi uch nafar shaxs ijtimoiy tarmoqlarda onlayn savdo ustida qo'lga olindi.

Shu tariqa viloyat ichki ishlar tizimining barcha xizmatlari – «102» navbatchilik qismi, patrul xizmati, kinologiya, profilaktika, ekspert-kriminalistika, jinoyat qidiruv va tergov bo'linmalari yagona mexanizm sifatida ishlab, ikki turdagi jinoyat bir kunning ichida fosh etildi. Tergov ishlari yakunlanib, ayblov xulosasi bilan sud organlariga yuborildi.

## TEZKOR HOLAT - RAQAMLARDA

1 Viloyat hududida giyohvandlik va psixotrop moddalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash yo'nalishi bo'yicha

3 Viloyatdagi 304 ta mahallaning 217 tasida (71,4 %) jinoyat sodir etilmadi. O'z navbatida, oldini olish mumkin bo'lgan

5 Qidiruvdagi shaxslardan 98 nafari ushlanib, jazo muqarrarligi ta'minlandi. Bedarakyo'qolgani uchun qidiruvda bo'lgan fuqarolarning 15 nafari topildi.

7 jinoyatlarning kamayishiga erishildi. Bu raqamlar hududda osoyishtalikni saqlash va jinoyat xavfsizligini ta'minlash borasidagi tizimli chora-tadbirlarning amaliy natijasidir.

2 joriy yilning 4 oyyakuni-ga ko'ra 123 ta jinoiy holat aniqlangan. Noqonuniy muomaladan 7 kg 462 gramm giyohvandlik vositalari va 11 125 dona psixotrop dori-vositalari olindi.

4 jinoyatlar 2025-yil shu davriga nisbatan 2,1 foizga (291/285) kamaydi. Xodimlar tashabbusi bilan aniqlangan jinoyatlar 443 tani (345) tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 28,4 foizga ko'paydi.

6 Qotillik, talonchilik, firibgarlik, qurbonsiz YTH, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish, xavf ostida qoldirish jinoyatlari, shuningdek, ayollar, yoshlar, sudlanganlar, ish-sizlar tomonidan sodir etilgan



orqali tungi vaqtda harakatlangan shubhali transport vositasi, ayniqsa, «Nexia» rusumli avtomashinalar kuzatildi. Ko'k rangli shunday ulov e'tiborni o'ziga tortdi, uning yo'nalishi tahlil qilindi. Tasvirlarda qo'ra yaqinidan chorva mollarini ortib chiqqanga o'xshash avtomashina tuman markazi tomon harakatlangani

kuzatildi. Jinoyat qidiruv xodimlari tomonidan olingan ma'lumotlar tezkor hisoblar bilan solishtirilganda, gumonlanuvchi muqaddam mayda huquqbuzarliklar uchun profilaktik nazoratga olingan 32-36 yoshli fuqarolar ekani ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng ularni qo'lga olish bo'yicha maxsus tezkor reja ishlab chiqildi.

## XODIMLARNING MAS'ULIYATI

menga katta tasalli berdi

O'g'irlangan qo'ylar-chi, deysizmi? Albatta, ular hujjatlashtirib olindi va egasiga qaytarildi. Quyida uy bekasi Dilorom Norqo'ziyevaning minnatdorlik so'zlari qo'ylarni topishda qatnashgan va boshqa barcha xodimlarga qaratilgan.

– Rosti, qo'ylarim o'g'irlanganida juda qattiq tushkunlikka tushdim. Chunki bu qo'ylar oilamning rizq-ro'zi, ko'p yillik mehnatimning natijasi edi. Bir kechada hammasidan ayrilib qoldim, deb o'yladim. Lekin ichki ishlar xodimlari voqeaga befarq qaramadi.

Qisqa vaqt ichida qo'ylarimni topib berishdi. Ayniqsa, xodimlarning mas'uliyati, odamlar dardini o'z dardidek qabul qilishi menga katta tasalli berdi. Bugun xalq tinchligi uchun xizmat qilayotgan insonlarga yana bir bor ishonдим.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Muqaddas SAPAROVA tayyorladi.

# ГЕНЕРАЛНИНГ УМР ЙЎЛДОШИ БЎЛИШ ОСОНМИ?

## Хоназимхон аянинг дил иқрорлари

**Ўз ҳаётини эл-юрт осойишталигига бағишлаган генерал-майор Ғофуржон Раҳимов ҳақидаги хотираларни варақлар эканман, бир ҳақиқат эътиборимни тортди. Марҳумнинг ҳамкасблари, дўстлари, шогирдлари ва яқинларининг дил изҳорларида бу инсоннинг фаолияти давомида эришган ютуқларида умр йўлдоши – Хоназимхон аянинг беқиёс ҳиссаси борлиги такрор-такрор тилга олинади.**

Бу меҳридарё онахон ҳақида мақола ёзиш ниятида йўлга чиқдик. Бизни покиза кўнгли нуроний чехрасига файз бериб турган онахоннинг ўзлари кутиб олдилар. Сўнг нақ музейни ёдга солувчи хонага бошлаб кирдилар. Бу хонадаги ҳар бир анжом генерал-майор Ғофуржон Раҳимовнинг синовли умр йўлидан сўзлаб турарди, гўё.

Хонанинг бир томонини эгаллаб турган китоб жавонига кўз югуртирар эканман, Абу Али ибн Сино, Юсуф Хос Ҳожиб, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Муҳаммад Фузулий, Мирзо Абдулқодир Бедил, Муҳаммад Ризо Огаҳий каби алломаларнинг асарлари, жаҳон адабиёти дурдоналари тизилиб турганини кўрдим. Хаёлимдан: «Ажабо, доим давлат хизматида юрган, вақти ўта тигиз бўлган бу инсон шунча дурдона асарни ўқишга қачон улгурган экан?» деган ўй ўтди.

«Аяжон, бу китобларни, кундаликларни ўқиб турасизми?» – деб сўрадим қизиқсиниб. «Ҳа, болам, китоб, газета-журнал ўқиш – жону дилим. Бобонгизнинг кундаликларини ўқисам, беихтиёр ўша дамларга қайтгандек бўламан. Неварам Қодиржонга ҳам ҳаммиша «Газеталар олиб келиб тур, жамиятдаги янгиликлардан хабардор бўлиб турай», – дейман».

Хоназимхон аянинг камтарлиги, самимийлиги ва дилкашлиги тўфайли суҳбатимиз тезда қовушди. Ҳаёт йўли ибрат сабоғига айланган онахоннинг соф ва самимий фикрларини сизга ҳам илиндик.

### Оққўрғондан Андижонга

Ғофуржон ака билан тақдирим боғланганда, ҳаётнинг паст-баландини ҳали тўлиқ англаб етмаган, соддагина қиз эдим. 1952 йилнинг ёзида хонадонимизда кутилмаган тўй тараддуди бошланиб қолди. Рисолат холам мени ўғиллари Ғофуржон акага сўратибдилар. «Ўқишим-чи?» – десам, «Ўзим ўқитиб оламан», – деб ваъда берибдилар. Ўша йилнинг 6 сентябрида тўйимиз бўлди.

Мени Андижонга келин қилиб олиб кетишди. Тўғриси, холамга келин бўлиб тушганим учунми, янги хонадонда унчалик қийналмадим. Хўжайиним жуда меҳмондўст инсон эдилар. Баъзан ярим тунда ҳам вилоятнинг чекка туманларидан иш юзасидан келган ҳамкасблари билан кириб келарди. Дарров дастурхон ёзиб, мазали таомлар кўярдим. Пазандачиликка иштиёқим баланд эди, шунинг учун ҳар сафар

меҳмонларни янги таомлар билан сийлашга уринардим.

### Катта масъулият

Генералнинг аёли бўлиш – бу катта бир масъулият. Тақдирини эл хизматидек заҳматли соҳа билан боғлаган эркакнинг аёлида сабр-тоқат метиндек мустаҳкам, қалби дарёдек кенг бўлиши керак. Турмуш ўртоғим ишдан жуда кечга қолсалар хавотир билан кутардим. Тунда қаердадир кўнгилисизлик юз берса, у киши яна чиқиб кетардилар. Тонг отгунча кўзим кўча эшигида бўларди. Қачонки, улар останада эсон-омон кириб келсалар, елкамни эзиб турган хавотир йўқолиб, ўзимни



кушдек енгил сезардим. Шу заҳоти дастурхон тузашга уннардим.

Болалар сал улғайганида генерал бобонгиз «Ҳар бир виждонли инсон ишлаши, жамиятга нафи тегиши керак», – дея мени ўзлари ишга киритиб қўйдилар. Шу тариқа, оила ва рўзғор билан кифояланмай, ўн беш йилдан ортиқ Андижон трикотаж фабрикасининг кадрлар бўлимида сидқидилдан меҳнат қилдим.

### «Қарс икки қўлдан...»

Бугун айрим аёллар эрининг кўполлигидан, ҳатто қўл кўтаришидан, оилада тотувлик йўқлигидан шикоят қилишади. Агар аёл киши саришта, озода, чаққон, пазанда ва ширинсўз бўлса, эрини эрталаб кийимларини дазмоллаб, нонуш-тасини тайёрлаб, хуш чехра билан кузатса... У ишдан қайтганида яхши кайфият билан қаршилаб, кўнгли

тусаган таомини ҳозирласа, фарзандлари тарбияли, уйлари батариб бўлса – қайси эркак хотинига жаҳл қилиб, қўл кўтаради? Эр иш юзасидан кеч қолганида, аёл жиғибийрон бўлиб ачиқ қилмаслиги, аксинча, уни тушуниб, кўнглини топа билиши керак.

Ғофуржон бобонгиз билан ярим асрдан кўпроқ ҳаёт кечириб, бирор марта «сан-ман»га бормаганмиз. Ўртамизга совуқчилик тушмади. «Қарс икки қўлдан чиқади» деганларидек, бир-биримизнинг феъл-атворимизни сўзсиз тушуниб, бахтли турмуш кечирдик. Бизнинг мана шу ҳаёт тарзимиздан ибрат олган фарзандларимиз, набираларимиз ҳам бугун ўз оилаларида тинч-тотув яшашаётганини кўриб, Аллоҳга минг бора шукроналар келтираман.

### Улоқдаги жасорат

1970 йиллар эди. Ғофур бобонгиз Бошқарма бошлиғининг ўринбосари бўлиб ишлардилар. Бир куни азонда туриб: «Бугун кат-



уларнинг оёғини босиб, суяқларини синдирган экан...

Улар учун «бегона инсон, бегона бола» деган тушунча йўқ эди. Каттами, кичикми, кимнинг бошига ташвиш тушса, худди ўз муаммосидек куйиб-пишарди. То муаммо ҳал бўлмагунча кечаю кундуз хаёллари ўша одамда бўлар, ёрдам бериш йўллари излаб тинчимасди.

### Умрбоқий иморат

Биз у киши билан мана шу оддийгина уйда яшадик. Хўжайиним бу борадаги саволларга кўпинча кўзларида чексиз бир ғурур билан: «Бу ҳаётда мен қурган энг катта иморат – ҳалол хизматим, мустаҳкам кўрғоним эса – оилам ва содиқ шогирдларимдир», – деб жавоб берарди.

У киши 60 йиллик фаолиятлари давомида ҳаммага ҳаммиша битта нарсани – нафс қутқусига учмай, ҳалол яшашни таъкидлаб ўтди.

Хоназимхон ая яқинда муборак тўқсон ёшни қаршилайдилар. Шукроналик умрининг зийнатига айланган бу табаррук онахоннинг ҳар бир сўзида беназир ҳаёт сабоқлари мужассам. Бу сабоқлар ўз халқини, касбини ва оиласини чин юракдан севган ҳақиқий Инсон – генерал-майор Ғофуржон Раҳимовнинг ўчмас ёди билан боғланган.


Улуғ ёшда оқилу фозил фарзандлари, меҳрибон набиралар ва ширинсўз чеваралар ардоғида умргузаронлик қилаётган бу нуроний онахон тимсолида ўзининг донишмандлиги ва садоқати билан тарихда номи қолган Бибахоним, Тўмарис каби момоларимизнинг ворислик нафасини туямиз.

Зеро, Ватанга содиқ генералларга мана шундай фидойи, матонатли ва қалби дарё аёллар умр бўйи суянч бўлади. Хоназимхон аянинг ибратли ҳаёти – бугунги ва эртанги авлод учун оила муқаддаслиги ва вафодорликнинг олий намунаси эканлигига шубҳамиз йўқ.

**Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,  
ўз мухбиримиз.**

Женщина в погонах

## ОФИЦЕР ЦИФРОВОГО ВРЕМЕНИ



Подполковник Севара Садуллаева – сотрудник органов внутренних дел, посвятившая службе более двух десятилетий. Сегодня она занимает должность инспектора по профилактике правонарушений в сфере информационных технологий УКД ОВД Бектемирского района и занимается предупреждением преступлений, связанных с кибермошенничеством. За плечами нашей героини – годы службы, работа с подростками и семья, в которой служба стала настоящей династией.

После окончания Академии МВД она приступила к службе инспектором по делам несовершеннолетних. Работа с ними стала важной частью ее профессионального становления.

Сегодня она связана уже с кибербезопасностью. Второй год Севара Абдуллакимовна служит в подразделении профилактики киберпреступлений, где ежедневно проводит профилактическую работу по предупреждению преступлений и правонарушений в этой сфере.

Ее должность требует не только профессиональных знаний, но и постоянного общения с

людьми. Севара Абдуллакимовна регулярно проводит профилактические беседы с гражданами, рассказывает о наиболее распространенных схемах интернет-мошенничества, объясняет, как защитить персональные данные и не стать жертвой злоумышленников. Особое внимание уделяется молодежи и пожилым людям – именно они чаще всего становятся объектами обмана в сети.

По словам нашей героини, современные преступления все чаще совершаются через телефон и интернет, поэтому сотрудникам органов внутренних дел приходится постоянно изучать новые методы работы мошенников. В своей деятельности Севара Абдуллакимовна старается

научить людей быть внимательнее к собственной безопасности в цифровом пространстве.

– Сейчас многие доверяют незнакомым звонкам, переходят по сомнительным ссылкам, сообщают банковские данные. Мы стараемся объяснять людям, что осторожность в интернете сегодня так же важна, как и безопасность в обычной жизни, – отмечает она.

Несмотря на сложность направления, подполковник Садуллаева уверена: профилактика остается одним из самых эффективных способов борьбы с киберпреступностью. Именно поэтому она считает своей главной задачей быть ближе к людям, вовремя предупредить и помочь избежать беды.

Особую роль в профессиональном развитии нашей героини сыграл наставник – начальник отделения профилактики правонарушений в сфере информационных технологий старший лейтенант Шахзод Сурхонов, который помогает и поддерживает в службе.

Служба для Севары Абдуллакимовны – это еще и семейная традиция. Ее отец, Садуллаев Абдуллаким, много лет прослужил в системе ОВД, дослужился до звания подполковника. Именно он стал для дочери главным примером преданности профессии.

– Я старшая в семье. Первой надела форму. Один из братьев тоже поступил в Академию МВД и окончил ее, – с улыбкой рассказывает она.

Сегодня Севара Абдуллакимовна – не только офицер, но и многодетная мама. Вместе с супругом, подполковником Ойбеком Каюмходжаевым, они воспитывают троих детей. Старшие учатся в вузах, а младшая дочь, ученица 9 класса, мечтает пойти по стопам мамы.

Несмотря на напряженный график и ответственную службу, главным источником поддержки для нее остается семья.

**Юлия МУСТАФАЕВА,**  
соб. корр.

Вопросы экологии

## УСИЛЕННЫЕ РЕЙДЫ ПРОДОЛЖАЮТСЯ

Незаконный выброс строительных и бытовых отходов в неустановленных местах стал объектом жесткого государственного контроля по всей республике.

Особое внимание приковано к курортным и природоохранным зонам. Так, инспекционные мероприятия проведены в Бостанлыкском районе Ташкентской области сотрудниками Управления экологии и изменения климата, органов внутренних дел, специалистами Угам-Чаткальского государственного национального природного парка и Бурчмуллинского государственного лесного хозяйства.

Установлено, что гражданин Ж. Г. выгрузил строительные отходы на территории махаллы Кичиксой. В отношении нарушителя составлен административный протокол по ч. 3 ст. 91<sup>1</sup> КоАО и наложен штраф в размере

2 миллионов 60 тысяч сумов.

Приняты меры и в отношении гражданина А. С., сбросившего строительные отходы на берег реки Угам, протекающей через махаллу Беш тут. Нарушителю пришлось не только выплатить



штраф, но и очистить прибрежную территорию от выброшенного им мусора за собственный счет. Грузовой автомобиль марки КАМАЗ

помещен на штрафную стоянку.

\* \* \*

В Каракалпакстане предпринимаются решительные действия,

направленные на искоренение стихийных свалок. По выявленным

ваны 124 незаконные свалки. На специализированные полигоны централизованно вывезено 3 103 тонны скопившихся отходов.

Изучена деятельность 271 строительного объекта. Застройщикам выданы предписания. Дирекцией по управлению полигонами отходов заключены договоры с 76 строительными организациями.

Ведется активная разъяснительная работа среди населения. Установлен 61 тематический баннер, организовано 790 информационных выступлений в медиапространстве.

Масштабные мероприятия по контролю за соблюдением экологического законодательства продолжаются.

**Подготовил**  
**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.

## A model of quality public administration

# MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS – THE MOST EXEMPLARY MINISTRY

On 22 May, our President Shavkat Mirziyoyev took part in a forum and awards ceremony for the «Quality public administration» programme at the International congress centre. This programme serves to provide an impartial assessment of the activities of government bodies, identify their strengths and weaknesses, and promote best practices on a wide scale.



Between January and April this year, the performance of 40 government agencies was assessed by local and international experts. The Ministry of internal affairs was named the most exemplary ministry for its positive results in providing public services.

The ministry has digitised around 60 types of services, making them 95 percent digital. Seventy-two databases have been integrated into the single «Secure city» system, which is linked to 14 control centres and more than 20 ministries. Last year, over 148,000 administrative cases were processed remotely.

Making modern public services more convenient for the public strengthens their trust in government institutions.

## Heroes among us

# LOYALTY TESTED BY THE FLOOD

The caprices of nature and extreme weather conditions have tested human will. The recent incessant rainfall and subsequent floods across the Republic have once again demonstrated the dedication of our true heroes in ensuring the peace and security of our people.

The guardians of peace risked their own health and lives, faithfully fulfilling their duty. Senior sergeant of the Tashkent regional DIA Doniyorbek Rustamov, and senior sergeants Sunnatillo Mus-

tafoyev and Feruz Namozov of the Navoi regional DIA were awarded the «For meritorious service» chest badge. Additionally, Bunyod Asilov, a mobilised operative of the Navoiy regional DIA, was presented with a MIA commemorative wristwatch.

These awards are a sign of the positive changes within the system and the trust between the public and the internal affairs agencies. As long as we have such employees who stand firm in difficult situations, our country will remain peaceful and secure.



## A young reader's great achievement

# INTERNAL AFFAIRS OFFICER'S CHILD – A PRIDE OF THE MOTHERLAND

The daughter of an internal affairs officer, Farzona Nosirova, a year 6 pupil at Peshku district's secondary school № 23, was the overall winner of the «Young reader» competition and was awarded the President's prize – an electric car, a BYD Chazor.

Farzona's love of books was shaped by her parents' own love of reading and their approach to education. Her mother, Mehriyoy Shirinaeva, is a doctoral candidate at Bukhara State University and an editor for scientific journals.

Farzona has read over 200 books and has analysed the works entered into the competition several times. Her father, major Nasim Bogiyev, highlights the family's exemplary reading traditions. He and his family have also achieved success in the «Exemplary family» competition.

The Minister of internal affairs congratulated Farzona and her family, wishing them every success in the future. Farzona intends to work in the tourism sector within the internal affairs system and is determined to learn foreign languages.



## Victory at the Asian championship

# UNRIVALLED IN ASIA!

From 18th to 25th May 2026, the Asian championship in mixed martial arts (AMMA) was held at the Olympic city in Tashkent. Over 400 athletes from 23 countries took part.

The championship also served as the official qualification stage for the 2026 Asian games. In the final competition, 16 Uzbek athletes took part, and Uzbekistan secured first place in the medal table with 6 gold, 7 silver and 3 bronze medals.



Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Nuqtayi nazar

# QONUN VA QUVONCH

## O'RTASIDAGI

So'nggi yillarda mashinani katta qizil lenta bilan bezatib, davlat raqami ustidan «Onajonimga», «Dadajonimga», «Akamga» kabi yozuvlar ilish bilan avtomobil sovg'a qilish o'ziga xos urfga aylandi. Bunday jarayonlar videoga olinib, ijtimoiy tarmoqlarga joylanadi, kuzatuvchilar esa buni mehr, ehtirom va oilaviy qadriyatlar namunasi sifatida olqishlaydi.



## CHEGARA

Albatta, ota-onani quvontirish, yaqin insonlariga sovg'a ulashish – ezgu fazilat. Biroq har qanday quvonch qonun doirasida bo'lishi kerakligini ham unutmaslik lozim.

Yaqinda Sirdaryo viloyatida yuz bergan holat aynan shu masalani yana jamoatchilik muhokamasiga olib chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan videoda sovg'a qilinayotgan «Gentra» avtomobili YPX xodimlari tomonidan to'xtatilgani aks etgan. Ilk qarashda bu «oddiy quvonchni buzgan holat»dek ko'rindi. Ayrimlar hatto ichki ishlar organlari xodimlarini tanqid qildi. Biroq voqeaning to'liq tafsilotlari ma'lum bo'lgach, vaziyat mutlaqo boshqacha ekani oydinlashdi.

**– Joriy yilning 30-aprel kuni Guliston shahri hududida xizmat olib borayotgan YPX inspektori tomonidan davlat raqami belgisi yopilgan holda harakatlanayotgan «Gentra» rusumli avtomobil tekshirish maqsadida to'xtatilgan. Tekshiruv jarayonida transport vositasini 19 yoshli, ammo hali haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan fuqaro boshqarib ketayotgani**

**aniqlandi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot xizmati boshlig'i, leytenant Muhridin Pirmatov. – Ushbu holatda, avvalo, avtomobil davlat raqami belgisi yopilgan holda harakatlangani qonunbuzarlik hisoblanadi. Shuningdek, transport vositasini haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan fuqaro boshqargani ham qonun talablariga zid holatdir.**

Shundan so'ng mazkur holat yuzasidan YPX inspektorlari tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasi asosida ma'muriy bayonoma rasmiylashtirish jarayoni boshlangan. Shu vaqtda haydovchining opasi ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan haqorat ham munosabat bildirib, ularning sha'nini kamsituvchi so'zlarni aytgan. «Ota-onasi yo'q bularni», «Orzu-havasi yo'q bularda» kabi iboralar nafaqat muomala madaniyatiga zid, balki inson qadriga ham to'g'ri kelmaydi. Axir, u yerda turgan xodim shaxsiy munosabat emas, qonun talabini bajarayotgan edi. Uning vazifasi – qoidabuzarlikni aniqlash

va chora ko'rish. Qonunni ijro etayotgan insonni haqorat qilish orqali hech bir qoidabuzarlik oqlanmaydi.

Bugun jamiyatda xavfli bir tendensiya ko'zga tashlanmoqda: ko'p hollarda qonunni buzgan odam emas, qonunni eslatgan odam yomon ko'riladi. «Axir sovg'a olib ketayotgan edi-ku», «yaxshi niyat bilan qilgan-ku» degan qarashlar ayrim holatlarda qonun talablarini ikkinchi darajaga tushirib qo'ymoqda.

Vaholanki, qonun kayfiyatiga, bayramga yoki insonning niyatiga qarab o'zgarmasligi kerak. Agar bir holatga ko'z yumilsa, boshqasiga nega chora ko'rildi degan savol tug'iladi. Qonunning kuchliligi – uning barchaga bir xil qo'llanishida.

Yo'l harakati qoidalari ba'zan odiy rasmiyatdek tuyulishi mumkin. Ammo har bir talab ortida inson xavfsizligi yotadi. Davlat raqamini yopib harakatlanish ham, hujjatsiz rulga o'tirish ham nafaqat qonunga zid, balki xavfli harakat hisoblanadi.

Bugun ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda katta kuchga aylandi. Ammo muammo shundaki, aksariyat holatlarda voqeaning faqat emotsional qis-

mi tarqaladi. Odamlar qisqa video orqali xulosa chiqarishga o'rganib qolmoqda. Natijada qonun talabini bajarayotgan xodim «quvonchni buzgan inson» sifatida ko'rinadi, qoidabuzar esa «jabrlangan taraf»ga aylanadi.

Yana bir jihat: bugun ayrim holatlarda voqeaning o'zi emas, uni ijtimoiy tarmoqqa qanday chiqishi muhimroq bo'lib qolyapti. Sovg'a ham, quvonch ham, hatto mojaro ham – kontentga aylanmoqda. Natijada odamlar vaziyatni hal qilishdan ko'ra, kamera orqali kim haq ekanini isbotlashga ko'proq urinyapti.

Shu bilan birga, mazkur holat ichki ishlar organlari faoliyatidagi yana bir muhim jihatni ham ko'rsatdi – muomala madaniyati masalasini. Albatta, qonun ustuvor va unga barcha amal qilishi shart.

Biroq qonunni qo'llash jarayonida inson psixologiyasi, vaziyatning emotsional tomoni ham inobatga olinishi kerak.

Balki xodimlar davlat raqamini yopish mumkin emasligini yotig'i bilan tushuntirib, yozuvni raqam ustiga emas, boshqa joyga joylashtirish mumkinligini aytganda, vaziyat bu qadar keskinlashmas-

midi. Chunki ma'naviyatli xodim – faqat jarima yoza oladigan emas, vaziyatni keskinlashtirmasdan boshqara oladigan xodim hamdir.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda politsiya tizimida mojaro vaziyatni yumshatish madaniyatiga alohida e'tibor beriladi. Chunki ba'zan bir og'iz to'g'ri muomala jarimadan ham kattaroq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Biroq bu fikrlar hech qachon qoidabuzarlikni yoki haqoratni oqlamaydi. Qonun posbonlarining harakatini tanqid qilish mumkin, lekin o'z vazifasini bajarayotgan insonning sha'nini poymol qilish – boshqa masala.

Bu voqeada har ikki tomon uchun xulosa bor. Fuqarolar hissiyot qonundan ustun emasligini anglashi kerak. Ichki ishlar organlari esa qonun bilan birga muomala madaniyatini ham kuchaytirishi zarur. Chunki sog'lom jamiyat – qonun va insoniylik muvozanati saqlangan jamiyatdir.

Albatta, mehr chiroyli, sovg'a ham. Ammo hech bir insoniy tuyg'u qonun talablarini chetlab o'tishga asos bo'lolmaydi.

**Adolat FAYZIYEVA, o'z muxbirimiz.**

# SAYYOHLAR E'TIROFI RUHLANTIRADI

Samarqand – dunyo sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, tarix va madaniyat uyg'unlashgan betakror shahar. Hamisha navqiron shaharga turli davlatlardan minglab sayyohlar kelishadi. Albatta, mehmonlar xotirjamligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash ortida katta mas'uliyat mujassam. Ana shunday sharaflı vazifani sidqidildan bajarayotgan xodimlardan biri – Samarqand viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi JTSG inspektori, leytenant Botirjon Samiyevdir. U o'zining halol xizmati va Vatan tinchligi yo'lidagi sadoqati bilan hamkasblarining hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Leytenant Botirjon Samiyev Samarqandning tarixiy obidalari atrofida xizmat qilayotgan paytlarida uning hushyorligi va mas'uliyati yaqqol namoyon bo'ladi. Hamkasblari uni kamtar, shu bilan birga, talabchan xodim sifatida qadrlashadi. Uning muomalasida odob, fuqarolarga munosabatida esa hurmat mujassam.

– Tinchlik – eng ulug' ne'mat, uni asrash esa har birimiz uchun sharaf, – deydi leytenant B. Samiyev. – Rossiya Federatsiyasidan kelgan sayyoh oilasi bilan muqaddas majmuani ziyorat qilib yurgan vaqtda ularning kichik farzandi odamlar orasida adashib qoldi. Bu holatdan qattiq xavotirga tushgan ota-ona yordam so'rab menga murojaat

qilishdi. Vaziyatni tezkorlik bilan o'rganib, atrofdagi kuzatuv kameralari orqali bolani izlashga tushdik. Oradan ko'p vaqt o'tmay, bolakay majmua hovlisidagi kabutarlarni tomosha qilib yurgan joyida topildi. Uni sog'-salomat ota-onasi bag'riga qaytarganimizda, onasi quvonchdan ko'ziga yosh oldi va bizga cheksiz minnatdorlik bildirdi. Eng ta'sirli jihati esa bolakayning ota-onasiga qarab: «Men ham katta bo'lsam, politsiya xodimi bo'laman», – degani bo'ldi. Bu so'zlar men va hamkasblarim uchun xizmatimizning eng katta ma'naviy mukofotiga aylandi.

Tinchlik va osoyishtalikni asrash faqat qonun kuchi bilan emas, balki mehr, mas'uliyat va insoniylik bilan

amalga oshadi. Leytenant Samiyev xizmatda hamisha ana shu mas'uliyatni chuqur his etgan holda faoliyat yuritadi.

Har bir sayyohning yurtimiz haqidagi ilk taassuroti, har bir insonning o'zini xavfsiz his qilishi ana shunday fidoyi xodimlarning mehnati bilan bog'liq. Ba'zan bir og'iz shirin so'z, o'z vaqtida ko'rsatilgan yordam yoki oddiy e'tibor ham inson qalbida umrbod saqlanadigan go'zal xotiraga aylanadi.

Lavhamiz qahramoni xizmatdan tashqari vaqtlarda kitob mutolaasi, sport va oila davrasiga alohida e'tibor qaratadi. Bu esa uning hayotga bo'lgan teran munosabatini ko'rsatadi. Vatanga muhabbat va kasbga fidoyilik uning bosh hayotiy



tamoyiliga aylangan. Xizmat faoliyati shahardagi qaysi bir tarixiy obida hududida kechmasin, u o'ziga savol bergan xorijiy sayyohlarga tarixiy yodgorliklar, muqaddas majmualar haqida maroq bilan gapirib beradi. Buning uchun tinimsiz tarixni o'rga-

nadi. Chunki har bir aytilgan ma'lumot sayyohlarning yurtimiz haqidagi taassurotlarini shakllantirishini yaxshi anglaydi.

**Umida MAMADALIYEVA,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Samarqand viloyati.*

## TUN-U KUN XALQ BILAN BIRGA

**Uch yoshli bola Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida sog'-omon topilib, ota-onasiga qaytarildi. Bolaning otasi ijtimoiy tarmoqlar va blogerlar orqali xodimlarga kasb mahorati va o'z vaqtida ko'rsatgan yordami uchun minnatdorlik bildirdi.**

Ushbu holat profilaktika inspektorlarining kundalik faoliyatini yaqqol aks ettiradi. Ular aholi orasida xizmat qilib, mahallalarda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash barobarida boshqa sohaviy xizmatlar xodimlari bilan birga qidiruvda bo'lgan shaxslarni aniqlash, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish va turli huquqbuzarlik holatlarini fosh etish bilan shug'ullanadi. Quyida profilaktika inspektorlari faoliyatidan bir necha misollar keltiramiz.

**Andijon viloyati** Marhamat tumanida profilaktika inspektori, kapitan Jamoliddin Sobirov jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan shaxsni ushladi. O'ttiz olti yoshli ushbu shaxs 2025-yil noyabr oyida poytaxtimizning Yunusobod tumani IIOFMB tomonidan qidiruvga berilgan edi. U firibgarlik va soxta hujjatlardan foydalanishda gumon qilinib kelingan. Qo'lga olingan shaxs tezkor qidiruv xizmati vakillariga topshirildi.



**Samarqand viloyati** Paxtachi tumanida profilaktika inspektori mayor N. Usmonov fuqaroro R. S. hovlisida qonunga xilof ravishda kannabis giyohvandlik

ekini parvarishlanayotganini aniqladi. Shuningdek, xolislar ishtirokida tekshirilayotgan vaqtda o'tkir hidli modda va taqiqlangan o'simlik urug'lari ham topildi.

tezkor ma'lumoti asosida tintuv o'tkazib fuqaroda M. B. uyining chordog'ida giyohvandlik vositasi borligini aniqlab, ashyoviy dalil sifatida olib qo'ydi.

Yana bir holat Marhamat tumanida sodir bo'lgan. Bu yerda fohishaxona tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi. Profilaktika inspektori, katta leytenant A. Tursunov tashabbusi bilan o'tkazilgan tezkor tadbir natijasida N. I. o'z uyini pul evaziga fohishaxonaga aylantirgani aniqlandi. Ushbu holat «E-material» elektron tizimida ro'y-xatga olindi.

Shunday qilib, profilaktika inspektorlarining faoliyati qidiruvdagi

shaxslarni aniqlashdan tortib, yashirin jinoyatlarni fosh etishgacha bo'lgan keng yo'nalishlarni qamrab oladi.

So'nggi yillarda aholining ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib bormoqda. Profilaktika inspektorlari mahallada xavfsizlik tizimining muhim bo'g'ini sifatida qabul qilinmoqda.

Mahallada tartib faqat davlat va jamiyatning hamkorligi orqali ta'minlanishi, fuqarolar esa profilaktika ishlarida faol ishtirok etishi zarurligi tobora anglanmoqda. Bunga misol tariqasida Urganch tumani «Ortodurmon» mahallasi profilaktika inspektori, kapitan Doston Jumanazarov faoliyatini keltirish mumkin. U mahalla aholisi bilan hamkorlikda ehtiyojmand, yolg'iz va nogironligi bo'lgan fuqarolarga doimiy ravishda amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, huquqbuzarliklarning oldini olish va aholiga ijtimoiy ko'mak berishni uyg'unlashtirgan holda, kompleks yondashuv jinoyatchilikni izchil kamaytirish va jamoat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

**O'z muxbirimiz.**



**M**ohir charm qo'iqop ustasi Isroil Madrimov haqida so'z ketganda, ko'pchilik avvalo uning kuchli zarbalari, tezligi va yuqori texnikasini e'tirof etadi. Aynan shu jihatlar sportchini professional boksning eng istiqbolli vakillaridan biriga aylantirdi. Madrimovni boshqalardan ajratib turadigan tomoni faqat jismoniy kuchi yoki texnikasida emas, balki intizomi va bosiqligida.

Toshkent viloyati IIBB TVBSO xodimi, mayor Isroil Madrimovning yana bir o'ziga xos, e'tiborli jihati shundaki, u g'alabalarni ortiqcha ehtirolarga berilmasdan, oddiylik va kamtarlik bilan qabul qiladi. Boks bo'yicha Osiyo chempioni va Osiyo o'yinlari g'olibi, WBA versiyasi bo'yicha sobiq Jahon chempioniga bir nechta savollar bilan murojaat etdik.

– Sport katta mehnat va intizomni talab qiladi. Vaqt yetishmasligi va tinimsiz mashg'ulotlar sabab bolalikda oddiy quvonchlar, o'yin-kulgu, bayramlar, oilaviy davralardan chetda qolgan paytlarim bo'lgan. Tengdoshlarim hordiq chiqarayotgan vaqtda men zalda mashq qilardim. Ayrim pallalarda bolaligim mashaqqat va mehnatdan iboratdek tuyulardi. Ammo bugun ortga nazar tashlab, o'sha qiyinchiliklar bejiz bo'lmaganini anglayman.

**ishtirok etadi. Shu haqida fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.**

– Futbol – bu nafaqat sport, balki butun xalqni birlashtiradigan, yurt sha'ni va g'ururini dunyoga namoyon etadigan katta maydon. Ayniqsa, terma jamoamiz safida iqtidorli futbolchilar – tengdoshlarimiz va kursdoshlarimiz Jaloliddin Masharipov hamda Jamshid Iskandarovlarning borligi menga alohida faxr va quvonch baxsh etdi. Bundan tashqari, Eldor Shomurodov, Abbosbek Fayzullayev, Abduqodir Husanov

# RING ORTIDAGI HAQIQAT

**– Ringga chiqishdan oldin Isroil Madrimov ko'proq nimadan qo'rqadi?**

– Har bir jang ortida katta mas'uliyat, Vatan sha'ni va xalqning duosi turadi. Men raqibdan emas, xalqimning ishonchini oqlay olmaslikdan qo'rqaman. Ringga chiqqanimda, faqat o'zim uchun emas, butun O'zbekiston nomidan jang qilayotganimni his qilaman. Shu sabab eng katta qo'rqavim – muxlislarimning ishonchini oqlay olmaslik.

**– O'zbek o'g'loni sifatida jahon arenalarda nimalarni his qilasiz?**

– Aksar insonlar kabi men ham tug'ilib o'sgan diyorum bilan g'ururlanaman. Zero, asrlar davomida bu zamindan ne-ne buyuk allomalar, jasur va mard insonlar yetishib chiqqan. Ana shunday yurt vakili sifatida zim-mamda doimo mas'uliyat yuki bo'ladi.

**– Hayotingizda qay biri sizning o'sishingizga ko'proq sabab bo'lgan: g'alabami yoki mag'lubiyatmi?**

– Albatta, g'alaba insonning keyingi yutuqlarga bo'lgan ishtiyoqini, intilishini kuchaytiradi. Men mag'lubiyatni tushkunlik sifatida emas, balki o'z kamchiliklarimni ko'rish va anglash, ular ustida ishlash imkoniyati deb qabul qilaman. Ayrim holatlarda mag'lubiyat insonni g'alabadan ko'ra kuchliroq tarbiyalaydi.

**– Ring sizni kuchlantirdimi...**

– Sizga aytsam, ring meni hayotga tayyorlagan katta maktab bo'ldi. Men ringda nafaqat jang qilishni, balki sabr-toqatli, bosimga bardoshli bo'lishni va yiqilgandan keyin yana oyoqqa turishni o'rgandim. Bugun hayotda ham bu saboqlarning foydasini ko'ryapman. Har qanday zarbani matonat bilan qabul qilish va undan to'g'ri xulosa chiqarishni menga aynan sport o'rgatdi.

**– Boks tufayli nimadandir voz kechishga to'g'ri kelganmi? Siz hech kimga aytmagan va chetda qolgan orzularingiz bo'lganmi?**

**– Sizning mohir bokschi sifatida yutuqlarga erishishingizda jamoaning o'rni qanday bo'lgan?**

– Jamoa, murabbiy, ota-ona va yaqinlarning qo'llab-quvvatlashi sportchiga katta kuch beradi. Agar shu omillardan biri yetishmasa, bu nafaqat natijaga, balki insonning ruhiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jamoadagi muhit sport pillapoyasidan ko'tarilishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois jamoada sog'lom muhit, o'zaro ishonch, hurmat va yagona maqsad sari umumiy intilish bo'lishi kerak. Ana shundagina yuqori natijalarga erishish mumkin. Jamoamizdagi sportchilar bir-birini yaxshi tushunadi, doimo qo'llab-quvvatlaydi. Fe'l-atvorimiz, qiziqishlarimiz ham o'xshash, yaqin. Shuning uchun jamoadagi ahillik va birdamlik har bir muvaffaqiyatimizda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**– Barchamizga ma'lum, O'zbekiston milliy terma jamoasi futbol bo'yicha Jahon chempionatida**

kabi futbolchilarimiz hamisha milliy terma jamoamiz rivoji, yurt sharafi va muxlislar ishonchi uchun maydonda bor kuch-g'ayrati bilan harakat qilib kelishmoqda. Ularning mehnati, jasorati va vatanparvarligi har birimiz uchun ibrat. Bir so'z bilan aytganda, futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolariga chin qalbimdan omad, yuksak muvaffaqiyatlar tilayman. Ishonamanki, ular yurtimiz bayrog'ini yanada baland ko'tarib, O'zbekistonga munosib g'alabalar bilan qaytishadi.

**– Siz g'olib bo'lgan qaysi jang xotirangizda alohida iz qoldirgan?**

– Har bir g'alabaning o'ziga xos o'rni bor. Biroq 2018-yilgi Osiyo o'yinlari alohida esda qolgan. O'sha payt Vatan bayrog'ini baland ko'tarib chiqish menga katta sharaf va iftixor bag'ishlagan. Shuningdek, professional boksdagi jahon chempioni bo'lganim ham unutilmas lahzalardan biri. O'sha jangdan keyin ko'p yillik mehnat va mashaqqatlarimizning samarasini his qilganman. Bu tuyg'uni so'z bilan ifodalash juda qiyin.

**– Bir kun ringni tark etsangiz, odamlar sizni qanday inson sifatida eslashini xohlaringiz?**

– Har bir sportchi vaqti kelib ringni tark etadi. Lekin insoniylik qoladi. Men odamlar qalbida yaxshi inson, Vatanga nafi tekkan sportchi sifatida qolishni istayman. Men uchun eng katta yutuq ham aslida shu.

Nilufar JABBOROVA  
suhbatlashdi.



## Bilasizmi?

O'tgan yilning oxirida tanikli jurnalist, sobiq ittifoq televideniyesi «Время» axborot dasturining respublikamizdagi o'n bir yillik maxsus muxbiri, O'zbekiston Birinchi Prezidentining birinchi matbuot kotibi Irismat Abduholiqovning «Davr jurnalist nighida. Maxsus muxbir xotiralari» kitobi chop etilgan va Milliy matbuot markazida taqdimoti o'tgan edi. Asardan muallifning yarim asrdan ortiq ijodiy faoliyati davomida ko'rgan-kechirgan, bevosita ishtirok etgan muhim voqeahodisalar haqidagi xotiralari joy olgan.

## MAXFIY MA'LUMOT: CHORASIZLIKKA CHORA



Unda sobiq ittifoq davrida O'zbekiston hududida yadroviy portlashlar amalga oshirilgani haqidagi ma'lumotlar ham keltiriladi. Xususan, 1963-yil 1-dekabrda Buxoro viloyatidagi O'rtabuloq gaz konida boshlagan va uch yildan ortiq vaqt davomida yonayotgan gaz mash'alini o'chirish uchun qo'llanilgan 30 kilotonnalik maxsus termoyadro bombasi yer ostida 1500 metrdan ortiq chuqurlikda portlatilgani haqida so'z yuritiladi.

Hududdagi eng yirik gaz konlaridan biri bo'lgan O'rtabuloq koni 1960-yillar boshida topilgan edi. Bu kon Buxorodan 90 kilometr janubroqda, Turkmaniston bilan chegara yaqinida joylashgan. 1961-yilda O'rtabuloqda burg'ilash ishlari boshlab yuboriladi. 1963-yilda chuqurlik 2400 metrga yetganda tarkibida oltingugurt miqdori juda yuqori bo'lgan gaz zaxirasiga duch kelinadi. Katta chuqurlikda kovlangan quvurdan kuchli tabiiy gaz favvorasi otilib chiqadi. U bexosdan yonib ketib, yer-u osmonga katta bosimda olov purkay boshladi. Kondagi bosim kuchliligi sababli olovning balandligi

120 metrgacha yetgan. Bu taxminan 40 qavatli binoning balandligi bilan teng.

O'shanda har sutka davomida 10–12 million kubometr gaz yonib ketaverardi. Manbalarga ko'ra, O'rtabuloq konida bir sutkada yonib ketayotgan gaz Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahri aholisining bir sutka mobaynida sarflaydigan gaz miqdoriga teng bo'lgan.



Yong'inni o'chirishga urinishlar boshlanadi. Biroq olovning tafti juda kuchli bo'lgani tufayli unga 200–250 metr masofadan ham na maxsus texnika, na o't o'chirish mashinalari yaqinlasha olardi.

Shu tariqa quduq salkam 3 yil (taxminan 1 064 kun) mobaynida to'xtovsiz yonib turadi va yarim milliard

kubometrda oshiqroq gaz isrof bo'ladi.

Quduqdagi olovni uch yil davomida o'chirishning iloji bo'lmagach, 1966-yilda uni bartaraf etish uchun yer ostida termoyadro bombadan foydalanishga qaror qilinadi. Birinchi navbatda kon yaqinidan 1500 metr chuqurlikda quduq burg'ilanadi. So'ng Arzamas yadroviy qurol laboratoriyasi tomonidan

katta bosim ostida bir-biri bilan aralashib, uzluksiz termoyadro reaksiyasi boshlanadi va zum o'tmay yer ostida qudratli portlash sodir bo'ladi. Natijada yer qatlamlari surilib, gaz otilib turgan quduq yopiladi va zamin qa'ridan chiqib turgan gaz favvorasi to'xtaydi.

1966–1979-yillar orasida to'rt marta mana shunday portlashlar amalga oshirildi. Ular yer qa'ridan otilib turgan uglevodorod favvoralarini to'xtatishda kilotonnagacha keladigan atom bombalarini portlatishdi.

**O'rtabuloq gaz koni portlatilganidan bir necha oy o'tgach, Qashqadaryodagi Pomuq gaz konidagi quduqlardan birida nazorat yo'qoladi. Burg'ilash ishlari 2748 metr chuqurlikka yetganida ishchilar gaz gorizontiga duch kelishadi. Quduqdan chiqayotgan gaz bosimi O'rtabuloqdagidan ancha yuqori bo'lib, 580 atmosfera bosimiga teng bo'lgan.**

Bu safar portlashni amalga oshirishda Chelyabinsk

yadroviy qurol laboratoriyasida ishlangan portlovchi moddadan foydalaniladi. Ushbu portlovchi qurol maxsus tayyorlangan bo'lib, quduqda 1000°C dan yuqori harorat va yuqori bosimga bardosh berishga mo'ljallangan edi. Bundan tashqari, uning diametri atigi 24 santimetr va uzunligi taxminan 3 metr bo'lgan, shuning uchun uni an'anaviy gaz va neft konlarining quduqlarida ishlatish mumkin edi.

Maxsus yadro bombasi O'rtabuloqdagidan ham kuchliroq — 47 kilotonna trotil ekvivalentini tashkil etgan.

**Yadroviy qurol 1968-yil 21-mayda 2440 metr chuqurlikda portlatilgan va ikki yil davomida atrofga katta miqdorda sizib chiqqan gaz oqimi yetti kundan keyin to'xtagan.**

2010-yil 20-aprelda AQSH qirg'oqlari yaqinidagi Meksika ko'rfazidagi dengizosti konidan to'satdan katta hajmdagi neft oqimi chiqib, dengiz suvlariga aralasha boshlaydi va u 87 kun davomida to'xtamagan. Hisob-kitoblarga ko'ra, taxminan 4,9 million barrel yoki 780 million litr neft okeanga tushgan. Bu insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik falokatlardan biri hisoblanadi.

AQSH mutaxassisleri bir necha yuz metr chuqurlikdagi bu neft oqimini tabiatga ziyon yetkazmay to'xtatish yo'lini qidirishadi. Shunda Rossiya mutaxassisleri amerikalik neftchilarga sovet davrida o'zlarining O'zbekistonda qo'llagan tajribasini taklif etishadi. Uzoqni ko'ra olgan, o'zini hurmat qilgan, tabiatga oshno amerikaliklar bu qaltis va ekologik xavfli usulni qat'iy rad etishadi. Ana shunday mulohaza-muzokaralar natijasida jahon hamjamiyati Buxoro gaz konlarida sodir bo'lgan bu dahshatli voqeadan O'zbekistonda yer ostida atom bombalari portlatilganidan xabar topadi.

**G'ayratulla SHUKUROV tayyorladi.**

So'nggi qo'ng'iroq

ORZULAR QANOT YOZDI



Mamlakatimiz maktablarida yangi so'nggi qo'ng'iroq sadosi na faqat xayrlashuv, balki yangi yo'lga chorlov sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ham «Yuksak ma'rifatli avlod – Uchinchi Renessans poydevori!» shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshlig'ining o'rinbosari, polkovnik Umidbek Nurullayev

Davlatimiz rahbarining maktab bitiruvchilariga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi.

Tadbirda o'quv yili davomida namunali xulqi va a'lo baholari bilan tahsil olgan iqtidorli bitiruvchilar munosib taqdirlandi. Ularning ota-onalariga maktab-internat rahbariyati tomonidan minnatdorlik xatlari topshirildi.

**Adolat FAYZIYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

**Ikrom HASANOV** olgan surat.



Poytaxtimizning Yakkasaroy tumani 118-umumta'lim maktabida ham bitiruvchilar uchun So'nggi qo'ng'iroq tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbir avvalida Prezidentning maktab bitiruvchilariga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi.

A'lochi o'quvchilar va ularning ota-onalariga faxriy yorliq va tashakkurnomalar topshirildi.

– Bu yil 91 nafar o'quvchi 11-sinf-

ni tamomlamoqda. Ularning chuqur bilim olib, a'lo baholar bilan o'qishiga mohir pedagoglar jamoasining hissi katta. Ishonchim komilki, bu o'quvchilarimizning barchasi oliy ta'lim muassasalariga muvaffaqiyatli kirishadi. Men ularga yanada yuksak parvozlar tilayman, – dedi maktab direktori Fotima Bekmurotova.

**Abu KENJAYEV,**  
fotomuxbir.

Toshkent shahri.

Sport

OSIYODA TENGSIZMIZ!

Xalqaro aralash jang san'ati federatsiyasi – «International Mixed Martial Arts Federation»ning yillik kalendar rejasiga muvofiq, 2026-yilning 18–25-may kunlari Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasining Yakka kurashlar majmuasida aralash jang san'atlari (AMMA) bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi.

18–20-may kunlari 18 va 21 yoshgacha bo'lgan sportchilar (U-18/U21) o'rtasida «2nd AMMA Youth Championship», 22–24 may kunlari kattalar o'rtasida «4th AMMA Championship» bahslari tashkil etildi.

Chempionatda jami 23 ta davlat – O'zbekiston, Afg'oniston, Avstraliya, Kambodja, Xitoy Tay-

pey, Gonkong, Hindiston, Indoneziya, Eron, Yaponiya, Iordaniya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Mongoliya, Pokiston, Falastin, Xitoy, Filippin, Koreya Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Singapur, Tojikiston va Tailanddan 400 nafardan ortiq sportchi ishtirok etdi.

Mazkur chempionat 2026-yil 2026 Asian Games



uchun rasmiy saralash bosqichi vazifasini ham o'tadi.

Yakuniy bellashuvlarda 16 nafar O'zbekistonlik sport-

chilar qatnashib, ulardan 6 tasi oltin medalga, 7 tasi kumush medaliga va 3 tasi bronza medaliga sazovor

bo'lib, qatnashuvchi davlatlar o'rtasidagi O'zbekiston medallar hisobida birinchi o'rinni egalladi.

## Malakali kadrlar — yutuqlar garovi

## MASHQDA QIYIN BO'LSA..



**Xizmat vazifalari ichki ishlar organlari xodimlaridan nafaqat yuksak bilim va tajriba, balki mustahkam sog'liq, yuqori jismoniy tayyorgarlik hamda murakkab vaziyatda tezkor harakat qila olish qobiliyatini talab etadi. Shu bois Navoiy viloyati IIB shaxsiy tarkibning jismoniy va jangovar tayyorgarligini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.**

Bu borada viloyat hududidagi sport tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik dasturi imzolangan. Ushbu dastur asosida xodimlar uchun muntazam ravishda mashg'ulotlar tashkil etib kelinmoqda.

Malakali mutaxassis-yo'riqchilar rahbarligida suzish, qo'l jangi, dzyudo, sambo hamda tezkorlik va chidamlilikni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar o'tkaziladi.

Mazkur mashg'ulotlar orqali xodimlarning jismoniy imkoniyatlari yanada oshirilib, ularning xizmat jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan turli murakkab holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, jinoyatchilarga qarshi samarali harakatlanish va o'zini himoya qilish ko'nikmalari mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, tartibuzarlarni zararsizlantirish, qo'lga olish va qonuniy talablarga bo'sundirishda qo'l jangi va samboning amaliy usullari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida ayol xodimalarga ham sport bilan muntazam shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borish va jismonan chiniqishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Bu esa ularning kasbiy salohiyatini mustahkamlash bilan birga, o'z kuch va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirmoqda.

Shuningdek, xodimlar bilan o'q otish mashg'ulotlari ham muntazam tashkil etiladi. Unda shaxsiy tarkibning quroldan aniq va to'g'ri foydalanish ko'nikmalari sinovdan o't-

Bundan tashqari, maxsus taktik tayyorgarlik bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib, shaxsiy tarkibning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish algoritmlari mustahkamlanadi. Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish, tegishli rejalar asosida ish olib borish va maxsus vositalardan to'g'ri foydalanish yuzasidan ham ularning amaliy ko'nikmalari sinab ko'riladi.

Shuningdek, xodimlardan to'sinda tortilish, qurolni noto'liq qismlarga ajratish va qayta yig'ish bo'yicha sinovlar qabul qilinib, ularning jismoniy holati, chaqqonligi va texnik tayyorgarligi baholanadi.

E'tiborli jihati shundaki, bu kabi mashg'ulotlar viloyat IIBning barcha tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'limlarida muntazam ravishda o'tkaziladi. Bu esa har bir xodimning xizmatga doimo tayyor bo'lishi, yuksak jangovar ruh va mustahkam iroda bilan faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda.

Sog'lom tan, mustahkam iroda va yuqori jangovar tayyorgarlik huquq-tartibot posbonlarining eng ishonchli tayanchidir. Navoiy viloyati ichki ishlar organlarida o'tkazilayotgan bu kabi tizimli mashg'ulotlar shaxsiy tarkibning kasbiy mahoratini oshirish, ularni jismonan va ruhan chiniqtirish hamda yanada samarali faoliyat ko'rsatishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



kaziladi. Xodimlar yangi namunadagi nishonlarga o'q uzib, ularning qurol bilan muomala qilishdagi va mo'ljalga olishdagi mahorati baholanadi.

mustahkam

## Salomatlik

TILLARANG  
SHIFOBAXSH  
NE'MAT

**Tabiat sog'liq uchun foydali, beba-ho ne'matlarga boy, foydali o'simliklardan biri chakanda (oblepixa) hisoblanadi. Ushbu tillarang rezavor xalq orasida shifobaxsh xususiyatlari bilan qadrlanadi. Mutaxassislar uni immunitetni mustahkamlash, shamollash bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish hamda organizmni quvvatlantirishda muhim manba deb tavsiflashadi.**

Ushbu butaning mevasi qarish jarayonini sekinlashtiradi, saraton kasalligining oldini olishga yordam beradi hamda qonda qand miqdorini barqarorlashtirib, moddalar almashinuvini yaxshilaydi. Chakanda tarkibida

omega-3, 6, 7 va 9, shuningdek, A, C, E vitaminlari hamda polifenollar – hujayralarni qarish va yallig'lanishdan himoya qiluvchi kuchli antioksidantlar bor. Bu rezavor meva butun organizm uchun foydali, jumladan:

- teri uchun: C va E vitaminlari, kollagen ishlab chiqilishini rag'batlantiradi, ajinlar ko'payishiga yo'l qo'ymaydi va terining sog'lom rangga ega bo'lishini ta'minlaydi. Uning tarkibidagi omega-6 va lino-len kislotasi teri qurishidan saqlaydi va yuzdagi husnbuzarlardan forig' bo'lishga yordam beradi;

- yurak uchun: yog' kislotalari qon tomirlari faoliyatini yaxshilaydi, qon bosimini me'yorlashtiradi, infarkt va insult xavfini kamaytiradi;

- immunitetni mustahkamlash uchun va saratonga qarshi: chakanda

tarkibidagi antioksidantlar organizmning himoya kuchini oshiradi hamda ko'krak, jigar va bachadon bo'yni saratonining oldini olishga yordam beradi.

Bugungi kunda ushbu rezavor-dan sharbat, murabbo, choy va moy kabi turli mahsulotlar tayyorlanmoqda. Ayniqsa, oblepixa moyi tibbiyot va kosmetologiya sohasida keng qo'llanilib, turli yaralar, kuyish holatlari va teri kasalliklarini davolashda hamda teri parvarishida samarali vosita sifatida ishlatiladi, shuningdek, sochni mustahkamlash va yuzni tozalash vositalari tarkibiga qo'shiladi. Tabiiy mahsulotlarga bo'lgan talab ortishi bilan oblepixa asosida tayyorlanayotgan krem, shampun va niqoblar ham ommalashmoqda.

**Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi shifokori, kapitan Azimjon MAHAMEDJANOV tavsiyalari asosida Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**

Hikoya

# ORZIQLASH

«Ha, o'zi keyingi paytlarda sabr kosasi to'lib yuruvdi, – xayolidan o'tkazdi Asqar. – Bu safar toshib ketibdi-da. Bugun ertalab ishga kuzatayotib: «Dadasi, yo bizni deng, yo ishingizni», – degandi. Asqar uni yengil quchib: «Nasib bo'lsa, bugun vaqtli kelaman. O'shanda bafurja gaplashib olamiz», – degandi.

Lekin aksiga olib bugun ham yarim kechasi keldi. Endi uyga qaytishga hozirlanib turganida, inkassator naqd pulni olish uchun do'konga kirganida, uning haydovchisiga bosqinchilik hujumi sodir etilgani haqida xabar olini. Shundan keyin voqea joyiga chiqishdi. Haydovchidan voqea tafsilotlarini sinchiklab so'rashdi. Bosqinchilar uch kishi bo'lib, niqobda ekan. O'tgan-qaytganlardan so'rab-surishtirishdi. Aksiga olib yaqin atrofda videokamera yo'q edi. Gumon qilingan shaxslarni tekshirib ko'rishdi. Lekin natija chiqmadi. Xullas, yana kech qaytib, xuddi xotining ustidan kulganday bo'ldi.

Nafsilamrini aytganda, oila qurishdan oldin Nafisani ogohlantirgan: «Mening ishim shunaqa – jinoyatchilarni poylash, quvish, tutish. Uyga kech qaytishim bor, tongotar qilib kelishim bor. Ba'zan kelmay qolishim ham mumkin», – degan. O'shanda Nafisa yosh qiz bo'lgani uchunmi yoki Asqarni yaxshi ko'rgani uchunmi rozi bo'lgan. Lekin kechga qolishlar ko'paygani sari, Nafisaning ham bezovtaligi ortib bordi. Ayniqsa, Asqar ba'zan ko'zi ko'karib, gohida peshonasi g'urra bo'lib uyga qaytganida vahimaga tushib qolardi. «Dadasi, sizni o'ldirib ketishsa, men nima qilaman?! Iltimos, ishingizni tinchroq'iga almashtiring», – deyishga tushardi.

Yaqinda birovning joniga qasd qilib, so'ng yashirib yurgan xavfli retsivistning qayerdaligini aniqlashdi. U yashiringan xonadonga kirishganida, pichoq yalang'ochlab turgan ekan. Qurol qo'llash xavfli – boshqalarga ziyon yetishi mumkin. Yakkama-yakka olishishga to'g'ri keldi. «Joningdan to'ygan bo'lsang, kelaver!» – dedi retsivist xirillab. Jinoyatchining qo'lini qayirib, pichog'ini tortib olayotganida tig'i biqiniga botdi...

Asqarning to'jarohati tuzalgunicha xotining bir oyog'i shifoxonada bo'ldi. Kasalxonadan chiqishi bilan «Dadajonisi, meni o'ylamasangiz, o'zingizni o'ylamasangiz, loaqal mana shu yakka-yu yolg'iz o'g'lingizni o'ylang. Uning otasiz o'sishini istamasangiz, ishingizni tashlang!» – deb Xudoning zorini qildi. O'shanda xotiniga «Bo'ldi, idoramizda boshqa biror tinchroq ish surishtirib ko'raman», – deb qutulgandi...

**Odatdagiday, bugun ham Asqar kechasi allamahalda uyiga kirib keldi. Xotini va o'g'li yotog'ida ko'rinmasdi. Shosha-pisha oshxona-yu mehmonxonani qarab chiqdi. Ikkisi ham hech qayoqda yo'q edi. Yuragi bir narsani sezganday kiyim javonini ochdi. Xotining bo'lmasi bo'm-bo'sh, faqat kiyim ilgichlar osig'liq turardi. Bolasining kiyimlarini ham olib ketibdi. Ilgari ham ikki-uch marta arazlab onasinikiga ketib qolgandi. Lekin hech qachon kiyim-kechakkacha olib ketmagandi.**



\* \* \*

Shu topda hamma-hammasi birma-bir xayolidan kino tasmasiday o'tib, dili xufton bo'ldi. Buning ustiga xotini bilan o'g'li uyda yo'qligiga to'rt devor siqib kela boshladi. Qanday otilib ko'chaga chiqqanini o'zi ham bilmay qoldi. Kuzning salqin havosi taniga xush yoqardi. Tong otishi oldidan esayotgan mayin shabada – bodi sabo yuzu ko'zini siypab, «Qo'y, siqilaverma, hali hammasi yaxshi bo'ladi», – deb unga taskin berardi go'yo.

Banogoh bolalar maydonchasi yonidagi o'rindiqda o'tirgan, qo'shni yo'lakdagi xonadonda turadigan ayolga ko'zi tushdi. «Bemahalda nima qilib o'tiribdiykin?» – deb yoniga bordi. Uni ko'rib ayol ko'kargan ko'zini kafti bilan yashirdi.

– Tinchlikmi, kennoyi? Bemahalda bu yerda nima qip o'tiribsiz? Ko'zingizga nima qildi? – salom berishni ham unutib, hol so'radi Asqar.

– Ey, akangiz jahl ustida musht tushirdi...

– Unaqa jahlini chiqarmang-da.

– Man qayoqdan bilay o'sha bir og'iz gapimdan jahllari chiqishini.

– Nima degan edingiz o'zi?

– Bilasiz, akaxoningiz tijoratchi. Shu kecha ikki o'rtog'i

bilan qoplarda pul ko'tarib kelishdi. Keyin mehmonxonaga kirvolib sanashga tushishdi. Choy-poy olib kirganimda, savdolaringiz baroridan kelibdimi deyman yoki buncha pulni topib oldingizlarmi deb so'rovdim...

– Hali jahllari bosilmagan bo'lsa, unda hozir yana ortingizdan chiqib qolsalar kerak.

– Qayoqqa chiqadi. Pulni sanab bo'lib, kayf ustida uxlab qolishdi. Hozir uchchoviyam tarrakday qotib yotibdi. Ertalab kayfi tarqasa, o'zi kechirim so'raydi. Ilgariyam necha marta shunaqa kayf ustida shapaloq tortib, keyin kechirim so'rab, qimmatbaho sovg'a olib bergan. Hushyorligida binoyiday odam. Lekin ichib olsa, fe'li ayniydi. O'zimniyam tilim yomon-da. O'sha payti jim o'tirsam bo'ladi-ku. Uyg'onsalar apoq-chapoq bo'lib ketamiz.

– Eru xotin urishi – doka ro'molning qurishi deng, kennoyi.

– Sigirim suzmaydi, erim urmaydi dema. Erning so'kkani – so'k oshi, urgani – un oshi, ukaginam. O'zingiz ham hali xo'roz qich-qirmasdan ko'chada nima qilib yuribsiz? Sizni kelinbola haydab yubordimi?!

– Qaniydi, shunday bo'lsa. Hadeb ishdan kech kelaverganimga, keliningiz arazlab ketib qolibdi.

– Ammo-lekin kech kelishingiz rost. Kelinning arazlaganicha bor. Balkonda erimning kelishini kutib o'tirganimda necha marta kechasi allamahalda qaytganingizni ko'rganman. Arazlab qayoqqa ham borardi. O'rtada bola bo'lsa. Yaxshilab kechirim so'rasangiz, mening erimga o'xshab sovg'a bersangiz, qaytib keladi.

– E, sovg'a undan aylansin, kennoyi. Qaytib kelsa bo'lgani...

Asqar allaqachon ayolning eri sheriklari bilan inkassatorlarni tunaganini anglab yetgandi. Shu topda o'zining tashvishi ham ko'ziga ko'rinmay, xayoli tezroq hamkasblarini chaqirib, talonchilarni qo'lga olish haqidagi o'y bilan band edi. U qo'shni ayol bilan xayr-xo'shlashib, ancha uzoqlashgach, yonidan uyali telefonini chiqarib, tanish raqamini terdi...

\* \* \*

Bugun Asqar uyga erta qaytdi. U bosqinchilarni qo'lga olishganidan, buning uchun rahbarlardan rahmat eshitganidan xursand edi. Qo'shni ayolga o'zining kimligini sezdirib qo'ymaslik uchun tezkor tadbirida qatnashmadi. Lekin xursandchiligi uncha tatimasdi. Sababi, xotini o'g'lini olib ketib qolganini o'ylab, yuragi siqilardi. Mashinasini har doimgi joyiga qo'yib, undan tushib, avval qo'shni ayolning balkoniga ko'z tashladi. Juvon balkonidan qarab turar, balki, xo'jayinim qaytib qolar deb erini kutardi. Keyin o'zining xonadoniga qaradi – birorta chiroq ham yoqilmagan. «Eh, qani endi, meni ham shu topda Nafisa balkonda kutib turgan bo'lsa...» – deb yuragi orziqib ketdi...

Shundan so'ng yana mashinasiga o'tirdi. Hozir to'g'ri qaynonasinikiga boradi. Ko'ngli sezib turibdi – har doimgidek qaynotasi kuyovining, qaynonasi esa qizining tarafini oladi. Asqar bo'lsa, o'g'lini bag'riga bosib: «Nima, bolamni tirik yetim qilmoqchimisiz, Nafisa? Meni o'ylamasang, o'zingni o'ylamasang, hech bo'lmasa o'g'limizni o'yla. Boshqa ish surishtiryapman. Yaqin orada topilib qoladi», – deydi.

Nafisaning yuragi tosh bo'lmasa, bu gapdan so'ng albatta eriydi. Bir amallab xotini bilan o'g'lini uyga olib kelvolsin, u yog'i bir gap bo'lar. Har holda ishini o'zgartirmasligi aniq, chunki kasbini yaxshi ko'radi. Qulog'iga uni bo'lim boshlig'i o'rinbosari lavozimiga mo'ljallashyapti degan mish-mishlar chalingandi. Balki, shu lavozimga tayinlashsa, uyga vaqtliroq qaytadigan bo'lar. Yana kim bilsin...

**Bobomurod TOSHEV**

## Namangan xalqaro gullar festivali

GINNES REKORDLAR  
KITOBIDAN JOY OLDI

Namanganda an'anaviy tarzda o'tkaziladigan Xalqaro gullar festivali yurtimiz va xorijdan minglab mehmonlarni jalb etadigan nufuzli madaniy tadbirlardan biri hisoblanadi.

Yaqinda Namangan shahrida 65-xalqaro «Gullar festivali»ga start berildi. Festival tabiatning betakror mo'jizasi bilan boshlandi – quyosh atrofida yumaloq shakldagi noyob kamalak hosil bo'lib, u o'n daqiqadan ortiq vaqt davomida kuzatildi.

Tinchlik xiyoboni hamda Zahiriddin Muhammad Bobur nomli madaniyat va istirohat bog'i kirish qismida xorijiy



Viloyat IIB JXX YHXB axborot guruhi rahbari, leytenant Nazira Olimjonova.

mehmonlar ishtirokida festivalga rasman start berildi.

O'tgan yili festivalga tayyorgarlik jarayonida viloyat bo'yicha jami

100 million tup gul ko'chati ekilgan edi. Bu yil esa ekilgan gul ko'chatlari soni 150 million tupga yetkazildi. Natijada Namangan «Jamo

bo'lib bir oy davomida eng ko'p ekilgan gullar» yo'nalishida Ginnes rekordini o'rnatgani e'lon qilindi. Ginnes vakili Sheyda Subasi festivalning tantanali ochilish marosimida maxsus sertifikatni Namangan viloyati hokimi Shavkatjon Abdurazzoqovga topshirdi.

Darhaqiqat, bu yilgi yubiley festivali avvalgilaridan mahallalardan boshlanganligi bilan ajralib turdi. Viloyatdagi mavjud 754 ta mahalla festival ishtirokchisiga aylantirilib, xonadonlar va ko'chalar gullar bilan bezatildi. Shuningdek, «Eng gulzor, eng obod mahalla» ko'rik-tanlovi ham o'tkazilmoqda.

Tadbir davomida jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan zarur xavfsizlik chora-tadbirlari kuchaytirilgan tartibda tashkil etildi.

Tantanali tadbirda xorijiy davlatlarning diplomatik korpus vakillari, investorlar, chet el kompaniyalari, sayyohlar, madaniyat va san'at namoyandalari hamda jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Bu yil festival doirasida 150 dan ortiq xalqaro, respublika va mahalliy miqyosdagi forumlar, madaniy-ma'rifiy, ommaviy-sport va boshqa tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

O'z muxbirimiz.



Namangan shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati safdor xodimlari – Islomjon Yo'ldoshaliyev (1-otryad, 2-guruh) hamda Zoyir Ahmadqulov (2-otryad, 1-guruh) 65-xalqaro gullar festivalining eng gavjum nuqtalarida xavfsizlikni nazorat qilishmoqda.

## MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

## Bosh muharrir

podpolkovnik  
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir  
o'rinbosarlari

podpolkovnik  
Azizjon FAYZIYEV  
mayor  
Aziza BOHODIROVA

## Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

## Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

## Navbatchilar

Sarvar SOBIROV  
Yuliy MUSTAFAYEVA

## TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari  
bo'yicha:

71-231-38-74;  
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz  
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
460010860262877031101179003  
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va  
axborot agentligi tomonidan  
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam  
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1514.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
49850 nusxada chop etildi.

## Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi.

Korxonalar manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.